

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida
UDK
BBK
J

HIKMATULLAYEV JOBUR JOHONGIRIVICH

“ XIX ASR VA XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA UYG'UR XALQINING
IJTIMOIY-SIYOSIY TARIXI”

5A 220204 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot metodlari

Magistr akademik darajasni olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar - t.f.d., prof. A. Xo'djayev.

Toshkent - 2012

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. UYG'UR XALQINING CHIN IMPERIYASI HUKMRONLIGI DAVRIDA IJTIMOIIY- SIYOSIIY AHVOLI	
I.1 CHIN IMPERIYASINING XIX ASRDA SHARQIIY TURKISTONGA NISBATAN AMALGA OSHIRGAN SIYOSATI.....	12
I.2 CHIN IMPERIYASI DAVRIDA UYG'UR XALQINING IJTIMOIIY- MADANIY HAYOTI.....	19
II.BOB. XX ASRNING I-YARMIDA XITOIY INQILOBI VA XITOIY XALQ RESPUBLIKASI DAVRDA SHARQIIY TURKISTON	
II.1. XITOIYDA 1911 YIL INQILOBI VA UNING SINZYAN (SHINJON) UYG'UR O'LKASI HAYOTIGA TA'SIRI.....	34
II.2. UYG'UR XALQINING XITOIY XALQ RESPUBLIKASI TASHKIL TOPGANDAN KEYINGI DAVRIDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIIY AHVOLI.....	46
XULOSA.....	63
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	65

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Uyg'ur xalqi Markaziy Osiyodagi eng qadimgi xalqlardan biri bo'lib, o'zining boy, madaniy o'tmishi va ming yillarni o'z ichiga olgan tarixiga egadir. Uyg'urlarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasining Sin'sziyan – Uyg'ur muxtor tumanida yashaydi. So'nggi chorak asr davomida jahon miqyosida, uyg'ur xalqi va uning tarixi mavzusiga qiziqish birmuncha ortib bormoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, uyg'ur xalqi Sharqiy Turkistonda, o'z obro'- e'tiboriga loyiq xalq sifatida aholining asosiy qismini tashkil etadi. O'zbekistonda ham uyg'ur xalqi tarixi bilan shug'ullanib kelayotgan olimlar ulkan tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan beri uzoq va yaqin davlatlar bilan hamkorlik, tinchlik, teng huquqli, bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik kabi tamoyillarga asoslangan tashqi siyosatni bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqda. Hozirda jahonning 150 dan ortiq davlatlari bilan O'zbekiston diplomatik munosabatlar o'rnatgan. Shunday davlatlardan biri hududi, aholisi va tarixi bilan jahonda katta mavqeiga ega Xitoy Xalq Respublikasi hisoblanadi. Hozirda geografik jihatdan Markaziy Osiyo ning bir bo'lagi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi tarkibidagi Shinjon-Uyg'ur tumani bilan O'zbekiston o'rtasidagi aloqalar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bu aloqalar O'zbekiston mustaqilligi arafasida boshlangan bo'lib, 1991 yil 26 iyulda O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan XXR ning Shinjon-Uyg'ur tumani o'rtasida savdo bitimi imzolangan. Bu jarayonlarda Xitoy va O'zbekiston o'rtasida birodarlashgan Shinjon-Uyg'ur tumani bilan Andijon viloyati Asaka shahrining birodarlashgan shaharlar sifatida rasman qayd qilinishi, 2002 yilda Shinjon-Uyg'ur tumani markazi Urumchi shahrida Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston uchun "xalqaro bozor"ning ochilishi ikki mamlakat halqlari iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga zamin hozirladi. Bu aloqalarning tarixiy asoslari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "... Xitoy davlati qadim-qadimdan bizning eng yaqin qo'shnimiz bo'lib kelgan. Ota-bobolarimiz asrlar, ming yillar davomida o'zaro bordi - keldi

qilib, tajriba almashib yashagan. Halqimizda “Yon qo‘shni-jon qo‘shni”, degan gap bor...”¹. Zero, “...mintaqada yashayotgan halqlarning geografik, etnomadaniy va ijtimoiy-diniy yaqinligi millatlararo muloqot va davlatlararo tashqi siyosat va savdo-iqtisodiy munosabatlarining ijobiy jihatlari sifatida maydonga chiqmoqda”².

Sobiq Ittifoq davrida ikki qo‘shni mamlakat halqlari o‘rtasidagi etnomadaniy va iqtisodiy aloqalar tadqiqotchilar diqqat-markazida turmagan. Ular o‘z e‘tiborlarini asosan ikki davlat hukmdorlari olib borgan o‘zaro kurashlar, ular yuritgan agressiv siyosatning mohiyati va uning oqibatida ikki hududda vujudga kelgan qo‘zg‘olonlar tarixini yoritishga qaratganlar. Hozirda taraqqiyotning o‘z mustaqil yo‘liga ega O‘zbekiston jahon hamjamiyatiga faol qo‘shilayotgan, o‘z tashqi siyosatini tinchlik, hamkorlik, hamjihatlik asosida qurayotgan, Markaziy Osiyoda integratsion va globallashuv jarayoni kechayotgan bugungi kunda O‘zbekiston va Sharqiy Turkiston halqlarining o‘tmishdagi tarixini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki tarixiy tajribaga suyanan holda kelajakdagi vazifalarni belgilab olish va hal etish mumkin. Bu esa o‘rganilayotgan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, barcha soxalar kabi tarix fani soxasida ham ko‘pgina o‘zgarishlar yuz berdi. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimov tashabbuslari³ va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yilda 27 iyul “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomilashtirish to‘g‘risida”gi qarori tarix fani rivojlanishini asosiy tamoyillari belgilab berildi⁴. O‘zbek davlatchiligi va uning tashqi siyosati, o‘zbek xalqining etnik shakllanishiga oid turli tarixiy masalalar yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar olib borildi. Ushbu masalalar qatorida o‘zbek xalqining qardosh va qondosh bolgan, tili, dini va urf-odatlari o‘xshash

¹Karimov I. O‘zbek halqi, hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. 2005 yil 25 may kuni XXR davlat tashrifi bilan jo‘nab ketishi oldidan Toshkent ayeroportida ommaviy axborot vositalari uchun berilgan intervyu. / O‘zbek halqi, hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. - Toshkent: O‘zbekiston. 2005. T. 13. - B. 403.

² Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - Toshkent, 1997. - B. 88.

³ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz – kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix institutni faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori // O‘zbekiston tarixi. – 1999. №1. B. 15 – 17

bo'lgan uyg'ur xalqi bilan o'zaro aloqalari tarixi ham tadqiq qilish muhmdr. Shu sababdan uyg'ur xalqi tarixini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda Xitoy hududida joylashgan Shinjon-uyg'ur avtonom rayoni bo'lgan Sharqiy Turkiston hududi qadimda bizning hududimiz bilan uyg'unlashib ketgan va bu o'lka tarixini, bu yerda bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealarning bizning vatanimizga bo'lgan ta'sirini o'rganish juda ham dolzarb hisoblanadi. Bu yerda turkiy tilli xalqlar yashaganligi, urf-odat, an'analar bizning xalqimiz taomillariga juda yaqinligini hisobga olib, o'lkaning tarixiy ahamiyati bizda javobsiz qolayotgan savollarga yechimi bo'lishi tabiiy.

Masalani dolzarbligi yana shundaki, XIX asr oxiri - XX asr birinchi yarmi davomida bir tomondan Rossiya va uning mustamlaka o'lkalarida, ikkinchi tomonidan Xitoyda ulkan siyosiy - ijtimoiy o'zgarishlar ro'y bergan. 1912 yilda Xitoy Chin (manjur sulolasi) hukmronligidan ozod bo'ldi, inqilobiy jarayonlar ro'y berib, oqibatda 1949 yilda sotsiyalistik yo'ldan boruvchi Xitoy Xalq Respublikasi tashkl topdi. Rossiya imperiyasida esa podsholik tuzumi tugab sovet davlati tashkil topdi. Ushbu o'zgarishlar qanchalik chuqur ijtimoiy – siyosiy ma'no kasb etmasin, Sharqiy Turkistonga munosabatining mohiyati o'zgarishsiz qolaverdi. Xitoy Sharqiy Turkistonni o'z ta'sir doirasidan chiqarmaslk yo'lda qat'iy siyosatni davom ettirmoqda. Biroq ushbu murakkab jarayon tarixi va tarixshunosligi yetarli o'rganilgan emas. Buning ustiga Xitoy tomoni ilmiy va ommabop targ'ibot ishlarida o'zining Sharqiy Turkistonga munosabatini mumkin qadar qonuniy qilib ko'rsatshiga harakat qilib kelmoqda. Uyg'ur xalqining o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi masalasi Xitoy siyosatiga oppozitsiya va separatistik harakatlar deb hisoblanadi. Bu masala ijtimoiy siyosiy jihatlar bilan chuqur tadqiqotlarni talab qiluvchi dolzarb muammo hisoblanadi.

Dunyo mamlakatlarining, ayniqsa ilg'or mamlakatlarning O'zbekistonga qiziqishlari juda katta. Bunga bir misol O'zbekiston Xitoy aloqalarini aytib o'tish o'rinli. Uyg'ur xalqi XIX-XX asrning 2 yarmida boshidan kechirgan, kunlari tarix fani uchun ham katta ahamiyatga ega, ularning aksariyat qismi qiziqarli ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi.

Uyg'ur tarixi xaqida ko'plab manbalar kutubxonalarga taqdim etildi. Ammo nashr etilgan asarlarning ko'pchiligi xorijiy tillarda, xususan xitoy tilida yozilgan. Birgina Xitoy tilida nashr etilgan kitoblarni tilga oladigan bo'lsak, kamida 50-60 ta asarni sanab o'tish mumkin. Ulardagi ma'lumotlar, ayniqsa bizga etib kelmagan ilmiy faktlar juda noyobdir. Albatta Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo hududidagi va Uyg'ur xalqiga bo'lgan katta qiziqishi bilan bevosita bog'liqdir.

Uyg'ur xalqining ahamiyati oshgani sari olimlar va mutaxassislar mazkur yo'lning o'tmishiga, bugungi xolatiga va kelajagiga oid barcha masalalariga, qayta qayta murojat etmoqdalar. O'zbekiston olimlari ham Uyg'ur xalq mavzusiga ko'pdan beri qiziqib kelmoqdalar, bu borada bir qancha kitoblar nashr qilindi, lekin bu bilan Uyg'urlar mavzusi to'la to'kis yoritib bo'lindi deb aytolmaymiz.

Shularni inobatgan olgan holda biz tanlagan mavzuning ko'plab qirallari manba va xujjatlar bilan yoritilgan. Mavzuni dolzarbligi uning ana shu ilmiy va nazariy ahamiyati bilan belgilanadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Tadqiqotga jalb etilgan mavzu garchi bugungi kunga qadar alohida fundamental ish sifatida tadqiq etilmagan bo'lsada, XIX asr oxiri va XX asr o'rtalarida uyg'ur xalqining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvolining ayrim tomonlari yoritilgan tadqiqotlar mavjud. Ushbu ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruhga XX asrning 40-yillaridan to 1991 yilgacha nashr etilgan asarlarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruh mustaqillik davrida nashr etilgan tadqiqotlardan iboratdir.

1. Malumki sovetlar davrida tarixchilik sohasida e'tibordan chetda qolib kelgan muhim soxalaridan biri Xitoy o'lkasi va uyg'ur xalqi hayotiga be e'tiborlik bilan qaralganini va chuqur iz qoldirmaganligini va bu mavzuda alohida satrlar saqlanib qolmaganiga afsus qilamiz. Vaxolanki, bu mavzu davlatchlik tariximizni xaqqoniy yoritish borasida g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Bu xol uyg'urlarning hayotini o'rganishda yaqqol namoyon bo'ladi. Magistrlik disertatsiyasini yozishda bir qancha manbalar asosida yozishga xarakat qildik. XX asrning 50-80 yillarida H.Ziyoyev, L. Duman, V.S. Kuznetsov, V.S. Gurevich, M. Kutlukov, A.Xo'jayev

kabi olimlar yozma manbalar ma'lumotlari asosida uyg'ur xalqi tarixining turli masalalariga oid tadqiqotlar olib bordilar⁵.

Uyg'urlar hayoti mustaqillikga erishgach, ular xaqida bazi bir yo'qolib ketgan manbalar asta sekinlik bilan ,olimlarni izlanishlar natijasida uyg'ur xalqiga doir manbalar yuzaga chiqmoqda. Uyg'ur tarixi xaqida olimlar fikr mulohazalarini berib kelishmoqda. Shular qatoridan uyg'ur xalqini tarxini chuqur o'rgangan olim, tarix fanlari doktori: Professor A.Xo'djayev, uyg'ur xalqi tarixi xaqida juda ko'p kitoblar yozgan.

Mustaqillik yillarida ham mavzuning turli jihatlarini oʻzida aks ettirgan bir qator dissertatsiyalar himoya qilindi. Jumladan, Sharqiy Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga doir manbalar masalasiga A. Aitboyevning dissertatsiyasi bagʻishlangan boʻlib, unda tadqiqotchi uygʻur tilidagi manbalar va “Turkiston toʻplami” maʼlumotlari asosida Sharqiy Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Qoʻqon savdogarlarining roli haqida ayrim maʼlumotlarni keltirib oʻtadi⁶.

Uyg'ur xalqiga doir manbalar asosiylari Xitoy tilida yozilgan. Ba'zi kitoblar ham o'zbekcha yozlganini uchratishimz mumkin. Kitoblarda uchraydgan xitoycha atamalar hozirgi kirill alifbosida beriladi. Shuning uchun ularning transkripsiyasi rus adabiyotida uchraydigan xitoy atamalarining transkripsiyasidan farq qiladi.

Dissertatsiyaning maqsad va vazifalari. Ushbu magistrlik dissertatsiyani yozishdan asosiy maqsad Sharqy Turkstonning asosiy aholisi xsoblangan Uyg'ur xalqining XIX asr va XX asr birinchi yarmidag ijtimoiy va siyosiy tarixini yortishdan iborat quyidagi vazifalarni belgilab olindi:

5 Зияев Х. Восстание 1826 года в Восточном Туркестане.: Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. – М., 1952. – 30; Кузнецов В.С. Экономическая политика цинского правительства в Синцзяне. – М.: Наука. 1973. –180; Ёша муаллиф. Цинская империя на рубежах Центральной Азии (вторая половина XVIII – первая половина XIX вв.). – Новосибирск: Сибирские отделения, 1983. –120; Ёша муаллиф. Империя Цин и мусульманский мир // Центральная Азия и соседние территории в средние века / история и культура Восточная Азия. Новосибирск: Наука, 1990. – С. 110; Гуревич Б.П. Международные отношения в Центральной Азии в XVIII – первой половине XIX в. – М., 1983; Кутлуков М. Мухаммад Содиқ Қашқарий. – Тошкент, 1968. – Б. 5; Ёша муаллиф. Взаимоотношения Цинского Китая с Кокандским ханством // Китай и соседи. – М.: Наука, 1982. – С. 212; Ёша муаллиф. Цинское завоевание Джунгарии и Восточного Туркестана в 1755–1759 гг. и освещение его в трудах местных кашгарских историков // Из истории Средней Азии и Восточного Туркестана XV–XIX вв. – Ташкент: Фан, 1987. – С. 70; Ходжаев А. Захват цинским Китаем Джунгарии и Восточного Туркестана. ...; Ёша муаллиф. Из истории международных отношений Центральной Азии в XVIII веке. – Ташкент: Фан, 2003. –286; Ёша муаллиф. Буюк Ипак Йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2007. – Б. 41.

⁶ Айтбоев А. Основные источники по истории v v b l Туркестана в XIX в (по социально-экономическим вопросам): Дисс... канд. истор. наук. – Ташкент, 1994.

- Uyg'ur xalqining Chin imperiyasi tarkibidagi ijtimoiy siyosiy ahvolini turli tarixiy manba va adabiyotlar asosida yoritish;
- Chin imperiyasining XIX asrda Sharqiy Turkistonga nisbatan siyosati, Chin imperiyasi davrida uyg'ur xalqining ijtimoiy hayotini o'rganish;
- 1911-1912 yillardagi Xitoy inqilobidan so'ng uyg'urlarning siyosiy ahvoliga ta'siri tadqiq qilish;
- Uyg'ur xalqining Xitoy Respublikasi davridagi ijtimoiy siyosiy ahvoli manbalar, adabiyotlar va internet ma'lumotlari asosida yoritish.

Tadqiqotning manbaviy asoslari. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Sharqiy Turkiston tarixi, yani uyg'urlar tarixiga jaxon ilmiy markazlarda qiziqish ortgan. Ko'plab uyg'urshunos olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarini ishlarini boshlaganlar. Bu o'lka tarixini o'rganish uchun juda ko'plab ekspeditsiyalar uyushtirildi va ko'plab natijalarga erishildi. Bulardan eng ko'zga ko'rinarlilaridan biri bu Rossiya geografiya jamiyati tomonidan olib borilgan ekspeditsiyalardir. Ular quyidagilardan tashkil topgan:

1. M.M. Berezovskiy rahbarligidagi Kucha shahriga qilingan ilmiy safar (1905 – 1907);
2. 1905 – 1907 yillarda A.I. Koxanovskiy rahbarligidagi Turfon shahriga uyushtirilgan ekspeditsiya;
3. 1909 – 1915 va 1913 – 1915 yillarda C.E. Malov tomonidan Sharqiy Turkiston o'lkasiga safar;
4. 1914 – 1915 yillarda S.F. Oldenburg boshchiligidagi ilmiy safar.

Bu yerdagi ilmiy tadqiqot natijalari, jumladan, topilgan buyumlar, yozma manbalar Rossiya olib ketilgan va muzelarda saqlanadi.

Bu o'lka tarixini o'rganishda faqat rus olimlari shijoat ko'rsatgan deb aytsak xato qilgan bo'lamiz. Chunki boshqa mamlakatlardan ham ko'plab ko'zga ko'ringan olimlar bu yerda o'z ilmiy tadqiqotlarini olib borganlar. Jumladan, 1906 yilda fransuz olimi P. Pelo Dunxuanda, 1906 – 1908 yillarda ingliz olimi A. Steynlar o'z tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bundan tashqari nemis olimlar Gut, A. Gryuvedel, A. fon Lekoklar XX asr boshlarida Turfa, Qumul, Koshg'ar,

Kuchar, Moralboshi, Qizil, Qorashahar kabi shaharlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar⁷.

Yuqorida nomlari tilga olingan olimlar olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida mazkur mintaqada qadim davrlardan beri yashab kelayotgan uyg'ur xalqining tarixi, madaniyati va san'atiga doir juda ham ko'plab qo'lyozma manbalari va boshqa shu kabi moddiy-madaniy buyumlar topib o'rganildi. Ayni vaqtda mazkur noyob madaniy yodgorliklar Rossiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Yaponiya va boshqa davlatlarning muzey va kutubxonlarida saqlanmoqda⁸.

2. Mazkur davrda son-sanoqsiz janglar, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro manfaatlarining to'qnashuvi, davlatchilik hayotidagi vaziyatlar bilan tavsiflanadi. Mazkur muomoli vaziyatda davlatning ichki va tashqi siyosati ta'sirini natijasi edi.

Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati Uyg'ur xalqi tarixini va uning tarixshunosligini o'rganish Uyg'ur xalqi xaqidagi mavjud tasavvurlarmiz hamda tushunchalarimizning yanada kengaytirib, bu boradagi mavjud muammoli masalalarni hal etishda hamda uning ham Markaziy Osiyoda o'ziga xos o'rin tutishini bilishimizga yordam beradi. Shuningdek, ushbu ish materiallari keyingi tadqiqotlarni olib borishda qo'llanma vazifasini o'tashi va o'quv yurtlarida tarix fakultetlarida, ma'ruzalar o'qishda, darslik va qo'llanmalar tayyorlashda qo'llanishi mumkin.

Bu dissertatsiyani ilmiy ahamiyatini aytadigan bo'lsak uyg'ur xalqini hayotini xaqqoniy ravishda, yani manbalar asosida taxlil qilgan xolda, uyg'ur xalqi tarixiga yana bir bor murojaat etilib oz bo'lsada yangilik kiritildi.

Tadqiqotning tarkibi va tuzilishi. Tadqiqot 2 bob, 4 paragrafdan va xulosa, foydalanilgan adabyotlar ro'yxatidan iborat.

⁷ Анваров А. История изучения Восточного Туркестана английскими и индийскими путешественниками. Алматы: 1992. – С. 73.

⁸ Дьяконова Н.В. Культурное наследие национальных меньшинств Синьцзяна, в кн.: Труды Государственного Эрмитажа. Т – 2. М – Л., 1958. – С. 234.

I. BOB. UYG'UR XALQINING CHIN IMPERIYASI HUKMRONLIGI
DAVRIDAGI IJTIMOIIY SIYOSIY AXVOLI
I.1 CHIN IMPERIYASINING XIX ASRDA SHARQIY TURKISTONGA
AMALGA OSHIRGAN SIYOSATI

Uyg'urlar –xalq Xitoy xalq Respublikasi Sindzyan uyg'ur muxtor rayonining tub joy aholisi, 8 mln kishidan ortiq (1990 yillar o'rtalari) Markaziy Osiyo davlatlari shuningdek, Xindiston Avg'oniston, Pokistonda ko'p uchratishimiz mumkin. Uyg'ur tilida so'zlashadi, dindorlari asosan suniy musulmonlar. Fransuz olimi (Klapro't) fikriga ko'ra “uyg'ur” atamasi mill.avv. 3-2 asrlardan ma'lum. Bu millatni etnogenezi Xitoy manbalarida 4-5 min yil avval tilga olinadi. “Di” (turk)larning “chidi” (qizil di-jan turk)ga borib taqaladi. Xitoyning shimolida mavjud bo'lgan .Chidi davlati mil.avv 594 yil Dziyn (Jin) xonligi tomonidan tugatilgach, chidilar shimolga ketishga majbur bo'lishgan. Uyg'urlar xun qabilaviy ittifoqi (mil.avv 3asr)da muhim ro'l o'ynaganlar. Mill avv.5-8 asrlarda uyg'urlar Jo'jan (Avar) xonligi keyinchalik Turk xiqonligi tarkibiga kirgan, 7 asrga qadar Uyg'urlar tarkibida: yog'liqor, (xon avlodi), quturg'ur, turlam-veybur, buqosqir, ovchag', xazar-qasar, xo'g'ursu, yag'mo, ayovir, kabi 9 qabila mavjud bo'lgan. Keyinchalik ularga Sirdaryoning yuqori qismi (Yassi daryosi) bo'yida yashagan adiz qabilasi qo'shilishi bilan 10 uyg'ur ittifoqi shakllangan. 7-9 asrlardagi manbalarda 15 qabila uyushmasi, qayd etilgan.

Qadimgi uyg'urlarning aksariyati dehqonchilik bilan shug'ullanib, o'troq hayot kechirgan. Shu sababli ularda qabila urug'doshlik munosabatlari yo'qolib yashagan joylari nomi bilan atalib kelgan. Uyg'urlarning tog'lik o'lkalarida va chorvachlik bilan shug'ullangan qismi ko'chmanchi hayotga moslashgan edi. Ular 646-yil Sharqiy Turk xoqonligi xududida Uyg'ur xonligi tiklagan. Uyg'ur Urxun xoqonligi (Uyg'ur xoqonligi) davrida 744-840 uning barcha fuqorolari “Uyg'ur deb 9 asrda Uyg'urlarning Idiqu (Turfon) davlati Xitoy manbalarida “Kuju xonligi” deb nomlangan. XI-asrda uning xududi g'arbda Kuchar shimolda, Buyuk

Xitoy devorigacha cho'zilgan bo'lib, arab manbalarida "Bilol uyg'ur" yoki (Al-Marvaziy) deb qayd etilgan.

Uyg'urlar mamlakati qadimda madaniyat o'choqlaridan xisoblanadi, bu xududda ko'plab qadimiy davlatlar, shaxarlar mavjud bo'lgan. Uyg'urlar mamlakati qadimda turli yozuvlardan, ya'ni 26 ta foydalangan. Ular 5-6 asrlardan boshlab maxsus uyg'ur yozuvi ishlatisha boshlagan. Qadimda uyg'ur musiqa sa'nati Xitoy musiqasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uyg'ur xalqi musiqasining gavxari bo'lgan 12 maqom 16-asrda Ommonisaxon tomonidan tartibga solingan. U hayotida tosh,suyak, kumush mis, temirdan turli xeb ziynat buyumlari yasash rivojlangan.

Uyg'urlar qadimda jun, ipak paxtadan maxsus dastgohlardan mato to'qishgan. 3-asrda ular tomondan ishlab chiqarilgan qog'oz arxelogik qazishmalar natijasida topilgan qog'oz nusxalarining eng qadimiysi xisoblangan.⁹ Uyg'urlarning ijtimoiy siyosiy vaziyati qadimdan biz bilamiz, asosiy hayoti Chin (Manjur)lar bilan bevosita va bilvosita bo'g'liqdir va shuning uchun Chin imperiyasi davridagi uyg'urlarning hayoti ijtimoiy vaziyatini o'rganishni lozim deb topdik.

Xitoyda Min (Ming) sulolasi (1368-1644) davrida Xitoyning janubida istiqomat qilib kelgan aholi (Xanzular), Xitoyning shimolidagi kidonlar (Xitoylar) xududni egallashgan. Ular son jihatdan ko'p bo'lgan, shu tufayli kidonlar xanzularga singib ketadi. Ularning Markaziy Osiyoga surilgan bir qismi (qoraxitoylar) ko'chmanchi turkiy qabilalarning tarkibiga singib ketadi. 1644 yil Manjur imperiyasi janubiy Xitoyni bosib olgandan so'ng imperiya nomini "Ching" deb atadi. So'ngra mazkur imperiya, o'rta va quy imperiyani ham egalladi. Evropaliklar Manjur imperiyasining Shin, China, Chayna, Xina deb talaffuz qilgan. Keyinchalik bu nom Xitoyga taalluqli bo'lib qolgan. Arab, forsiy turkiy manba va adabiyotlarda 20- asrning boshlariga qadar turkiy xalqlarning qadimiy maskanlari Chin va Mochun (Ulug'chin deb tilga olinadi¹⁰

⁹ Aytboyev A. Uyg'urlar // O'zME,- Toshkent: 2005. 7-jild. -B. 623.

¹⁰ Aytboyev A. Uyg'urlar // O'zME, 2005. 7-jild. -B. 622.

1759 yilda Sharqiy Turkiston da mavjud bo'lgan Yorkend va Jung'or xonliklari Manjurlar qo'shini tomonidan bosib olindi. Yorkend xonligining tirik qolgan ba'zi taxt vorislari Pekinga jo'natib yuborildi. Ba'zilar esa O'rta Osiyo hududlariga qochib o'tdilar. Sharqiy Turkistonda asrlar davomida mavjud bo'lgan an'anaviy davlatchilik tuzumiga chek qo'yildi. Sharqiy Turkistonga Sindzyan, yani xitoycha "Yangi chegara" deb nom berildi. Xitoylar Shinjon deya yurita boshladilar, shuning uchun ham xozirgi tarixchilar o'z asarlarida Shinjon deb aytadilar¹¹.

Chin (Manjur) imperiyasi Sharqiy Turkiston, Yorkend xonligini ishg'ol qilgandan so'ng keyingi siyosiy boshqaruvi O'rta Osiyondan birmuncha tubdan farq qiladi. Chinlar Shinjonda qishloq xo'jaligining ishdan chiqardi. Shahar va qishloqlardan aholi qashshoqlashib, o'zlari tug'ilib o'sgan yerlarini tashlab, ishlash uchun O'rta Osiyo, Qozoqistonga keta boshladilar. Chin imperiyasi Sharqiy Turkistonda siyosiy boshqaruvini rivojlantirishda, bir qancha shaxarlar orqali o'zining boshqaruvini shakllantira boshladi shulardan eng asosiylari Yorkenddir.

Yorkend (qadimgi nomi Saxarako'l Xitoycha deb yuritilgan. Xitoydan Shinjon Uyg'ur muxtor rayo'nidagi shaxar. Qashg'ar viloyatini Yorkend tumani markazi (1980 yilgacha Qashg'ar viloyati markazi bo'lgan) Takimimakon cho'lini g'arbiy qismida Yorkenddaryoni o'ng soxilida 1200 metr balandlikda joylashgan. Aholisi 547,5 ming kishi asosan uyg'ur o'zbeklar yashaydi, Yorkendda din ikki qismga bo'lingan biri, o'zbek musulmonlari va ikkinchisi esa Xitoydagi Shane musulmonlaridir. Chin imperiyasi o'zining yurgizgan siyosatida, Yorkendni ahamiyati beqiyos bo'lgan, chunki bu yerdan turli xil savdo aloqalari, siyosiy aloqalar uchun eng muhim shaxar bo'lgan deb aytishimiz mumkin. Chunki bu yerda yirik dehqonchilik, g'llakorlik bog'dorchlik ipakchilik jadal ravishda rivojlangan, oziq ovqat, sanoat korxonalari ham mavjud. Sharqiy Turkistonda tarixga ma'lum va mashhur hunarmandlardir ular gilam, ipak gazlama va shoyi to'qishda dovrug'i butun dunyoga ketgan usha davrlarda, o'rta osiyoliklar ham ancha muncha aloqalar ham qilib turishgan, Chin imperiyasi ham boshqa davlatlar

¹¹ Xo'djaev A. Buyuk Ipak yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B. 40-41

bilan diplomatik va siyosiy aloqalar qilish uchun ham shu Yorkend, mahsulotlardan aloqa sifatida foydalanganlar.

Xitoy manbalarida qayd etilishicha, mil. avv. 65 yil Yorkendda 2300dan ziyod xonadon bo'lgan aholisi saklar (yunon manbalarida esa skiflar) Yorkend 1465-1759 yillarda Sharqiy Turkistonni o'z ichiga olgan, Yorkend xonligini markazi edi. Shaxar atrofida temir rudasi, qimmatbaxo yashma toshi, olingan. Yorkend orqali qadimda Oрта Osiyodan Sharqiy Turkistonga va boshqa shaxarlarga va Xindistonga boradigan karvon yo'li o'tgan shaxar. Buyuk Ipak yo'li joylashganligini qadimda xunarmandchilik, gilam ipak gazlama shoyi to'qish ravnaq topgan.

Xitoyda Shinjon uyg'ur muxtor rayonining Yorkend voxasida 1897-yil 22 avgustda kuchli zilzila ro'y beradi, bu Markaziy Osiyodagi kuchli zilzilalardan bo'lgan. Oqibatda bu zilzila Yorkend, Qashg'ar va unga yaqin qishloqlar vayronaga aylangan, zilzilani boshdan kechirgan odamlarning taxminiga ko'ra tabiiy ofat istilosida 6-7 ming kishi qurbon bo'lgan deb aytadilar, bu zilzila Chin imperiyasi uchun katta yo'qotishlar olib keladi, siyosiy aloqalarni endigina rivojlanishi uchun asosan bular iqtisodiy aloqani bosh mezon, qilib ancha muncha siyosiy ravnaq, manfaat uchun xarakatda edilar, to'satdan bo'lgan bu silkinish sanoat korxonalari, ipak to'qish va gazlama to'qish korxonlari ham to'xtab qoldi va moddiy tomondan, Chin imperiyasi tang ahvolda qoldi.

Chin imperiyasining siyosati, Uyg'ur xalqi uchun juda qiyinchiliklarni keltirib chiqardi xalq, juda qiyin axvolga tushishni boshladilar, xar xil pul islohotlarni amalga oshirmoqchi bo'ldilar, amalga oshirdilar ham, lekin bu islohot pulni qadsizlanishiga olib keldi, xalq qiynaldi shunda xalq uy mexnati ya'ni xususiy tadbirkorlik amalga oshirib shundan kun kechirishmoqchi bo'ldi, ammo Chinlar, soliqlarni butkul ko'paytirib tashadilar, avvali uyg'urlar boylik ortirish maqsadida ishlagan bo'lsalarda bu Chin imperiyasi siyosati davomida, qorin to'yg'azish uchun ishlay boshladilar, bolalar ochlikga chidolmay qoldi. Ota onalar ishlash uchun boshqa o'lkalarga keta boshladilar, og'ir mexnatdan xalqni tinkasi quriy boshladi, bir qancha mitinglar va chiqishlarni amalga oshirmoqda edilar, ozodlikga

chiqish uchun xalq barcha qiyinchiklarga tayyor edilar, lekin bu mitinglarni Chinlar bostirib, bartaraf qilishar edilar va bu o'lkada xo'jalar boshchiligida, Chin bosqinchilariga qarshi qo'zg'olonlar kuchaydi. 1864 yilda boshlangan umumxalq qo'zg'oloni natijasida birin ketin, Kuchar, Qashg'ar, Xo'tan Urumchi xonliklari, Ili Sultonligi kabi 5 ta mustaqil davlat tashkil topdi¹². XIX asrni boshlariga kelganda imperiyaning istilochilik qudrati zaiflashdi. Ijtimoiy turg'unlik va mamlakat aholisi asosiy qismini tashkil etuvchi dehqonlarning qashshoqlashuvi dehqonlar qo'zg'olonlarni keltirib chiqardi, xalq yuqorida aytganimidek tobora qiyinchiklardan aziyat chekar edilar, uyg'urlar bu pallada o'zlarini tinchlantirishga harakat qilsalarda, lekin chinlarning zug'umlari, uyg'urlarning nafratlariga aylanib borardilar, manbalarda keltrishicha oddiy xalq vakili qiynalgan oilani boshqarayotgan ota, qiyinchilkdan nolib xon saroyiga borganida, bolasi va ayolini ko'z o'ngida otani, kallasini tan'asidan judo qilishganligi aytib o'tilgan, bu voqea xalq ko'z o'ngida bo'lganligi bois xalq nafratlana boshladi.

Shu tariqa Sharqiy Turkiston ichki ziddiyatlar oqibatida yemiralayotgan feodal tuzumi iskanjasida qoldi. Hukmron sulola umri tugayotgan tuzumni butun choralar bilan saqlab qolishga urindi, hukmron tabaqalar siyosatiga qarshi har qanday bosh ko'tarish shavqatsizlik bilan bostirilar edi. Bu ham yetmaganidek Sharqiy Turkiston ongiga: "Imperator yorug' dunyoning xudosi va boshqa barcha davlatlar uning soliq to'lo'vchilaridir", degan chirkin g'oya zo'r berib singdirilmoqda edi. Tashqi siyosatlar va savdo aloqalar imperator amaldorlari nazorati ostida olib boriladigan tartib joriy etildi. Shunda ham tashqi savdo faqat Guonjo; porti orqaligina olib boriladigan bo'ldi, bu esa oddiy uyg'ur xalqi uchun mushkulliklar keltirib chiqardi, chunki Shinjonda ham ancha muncha savdo aloqalar olib borilardi, bu siyosat esa Shinjonliklarning g'azabini keltirdi. Chin imperiyasi Sharqiy Turkistonni o'zini o'zi yakallab qo'yish siyosati chirkin feodal tartiblarining saqlanishiga yordam berdi. Shu tariqa Sharqiy Turkistonning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga katta zarar yetkazardi. Imperator ma'murlari fan va texnika sohasida boshqa xalqlarning yutuqlarini rad etdilar. Mamlakat qoloqlik

¹² Xo'djaev A. Buyuk Ipak yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B. 40-41.

botqog'iga botib qoldi, Chin imperiyasining bu palapartishlik siyosati va Buyuk Britaniya, Chin imperiyasining qaysarligini sindirish uchun unga bir boxona kerak edi, bu davrda imperiyaning bu siyosati, nafaqat chet elliklarni g'ashita tegar, balki O'rta Osiyoliklarga ham ancha zarar yetardi va ichki qo'zg'olonlar birin ketin bostirilar edi

1864 yilda Muhammad Yoqubbek boshchiligida Yettishaxar davlat tashkil topdi. Asli Muhammad Yoqubbek (1820-1877 Piskent), "Badavlat", "O'taliq g'oziy" nomlar bilan mashhur Qo'qon xonligining harbiy va davlat arbobi edi. U Chinoz va Avliyoota (1846)ga, Oqmachit (1847)ga bek qilib tayinlangan. Yoqubbek Oqmachitda qushbegi lavozimiga ko'tarilib, rus bosqinchilariga qarshi kurashda jasur sarkarda ekanligini ko'rsatgan. 1864 yilda Sharqiy Turkistonda Manjur imperiyasining zulmiga qarshi mustaqillik uchun kurash boshlanib, beshta xonlik yuzaga keladi. Qashg'ar xonligi mamlakatni birlashtirish maqsadida Qo'qon xonligidan Yorkend xonligining taxt vorislardan biri Buzrukxo'jani Sharqiy Turkistonga yuborishini iltimos qilgan. Yoqubbek esa Buzrukxo'jaga qushbegi qilib tayinlanib, Qashg'arga yuboriladi. U 1865 yilda Buzrukxo'janing davlat ishlariga qobiliyatsizligidan foydalanib, xokimiyatni o'z qo'liga oladi, u boshida Buzrukxo'ja va boshqa xo'jalar nomidan ish yurgizib, Ili sultonligidan tashqari (Mazkur xonlikning 1871 yili Rossiya imperiyasi bosib olgan) 4 xonlikni (Qashg'ar, Xo'tan, Kuchor, Urumchi xonliklarini)birlashtirib Yettishaxar Uyg'ur davlatining tuzadi. Yoqubbek Yettishaxarning ravnaq topishi va dunyoga tanitish uchun katta ishlarni qiladi. Yoqubbek xonligi davrida ko'plab masjid, madrasa, karvonsaroy qurilgan. Yoqubbekni eng yaqin kishilardan biri, Xo'tan hokimi Niyozbek tomonidan zaxar berib o'ldirgan. Yoqubbek o'limidan keyin taxt uchun kurash boshlanadi.

Sharqiy Turkistoning qaytadan istilo qilish maqsadida Chin imperiyasi 60 ming kishdan iborat qo'shinni safarbar qilib, Yettishaxar davlatini yo'q qildi, jang juda shafqatsizlarcha bo'ldi, birqancha odamlar nobud bo'lib vaxshiyona o'ldirildi, qo'zg'olonchilar qirg'inga duch keldilar, tirik qolganlar O'rta Osiyo xududiga qochib qutuldi. Sharqiy Turkistonga "Sindzyan Shen" (Shinjon Provensiyasi)

maqomi berildi. Shu tariqa Chin imperiyasi o'zining "qo'shtirnoq ichidagi" juda yaxshi siyosat olib bormoqda edi. Yerning asosiy qismi zamindor boylar qo'lida edi. Ko'pchilik dehqonlar zamindorlardan yerni ijaraga olar, yer haqini pul bilan yoki hosil xisobidan to'lab qutular edilar. Yeri bor dehqonlar ham mavjud bo'lsada, ular juda kam edi.

Dehqonlar shaxarga ish qidirib kelar edilar, lekin har doim ham ish topilmas edi, chunki Xitoy sanoati juda sekin taraqqiy etayotgan edi. XIX asr o'rtalarida, mamlakatda kapitalistik korxonalar ko'mir shaxtalari, to'qimachilik korxonalari, vujudga kelib, rivojlana boshladi, dastlabki temir yo'llar qurildi. Iqtisodiy aloqalar kengaydi, yirik shaxarlar barpo etildi. Ishchilar soni ko'paydi, sanoat paydo bo'lishi bilan milliy burjuaziya ham paydo bo'la boshladi. Sharqiy Turkiston burjuaziyasining ko'pchiligi komparadorlar, ya'ni chet el kapitali bilan ichki bozor o'rtasida vositachilik qilar edi. Ular chet yel firmalarining agentlari bo'lib, xorijliklar bilan birgalikda mamlakatni ekspulatasiya qilar, chetdan keltirilgan tovarlarni sotish va arzon xomashyo sotib olish xisobiga boyib borardilar¹³. Pulga muxtoj bo'lgan Chin imperiyasi chet davlatlar bilan asoratli shartnomalar tuzar va milliy manfaatlariga xilof ravishda ularga "yon" berardi. Sharqiy Turkistonda temir yo'llar qurilishi xorijliklar tasarrufida edi, ko'mir shaxtalarning, konlarining katta qismi ham ularning ixtiyorida edi. Sharqiy Turkiston Chin imperiyasi davrida xom ashyo bazasiga aylanib qoldi. Sharqiy Turkistonda Chin imperiyasi, Yaponiya bilan 1894-1895 yillardagi urushda mag'lubiyatga uchrashi chet ellik monopolistlarning, Sharqiy Turkistonni yanada ko'proq talashlari, asoratga solishlari sabab bo'ldi.

Sharqiy Turkistonda bosqinchilik siyosati tobora avj olar edi va milliy boyliklarini talanishi xalq ommasining qattiq noroziligiga sabab bo'ldi. 1897-yil tumanlarda dehqonlarning xo'jayinlariga qarshi g'alayonlari boshlandi va bu g'alayonlar 1898-1899 yillarda mamlakatning turli viloyatlarga tarqaldi. Feodallarga qarshi g'alayonlar chet el monopolistlarga qaratilgan edi. Dehqonlar xarakati, ayniqsa nemis bosqinchilari tomonidan qatti ekspulatatasiya qilinayotgan

¹³ Lafasov M., Xoliqov E. Jaxon tarixi. Darslik, -Toshkent: Abdulla Qodiriy xalq me'rosi nashriyoti. 2002. – B. 33.

Shandun viloyatida juda katta g'alayonga sabab bo'ldi. Nemis bosqinchilarining o'zboshimchaligi xalq noroziligini keltirib chiqardi. Shandunda yashirin jamiyatlar tuzulib, jangovar otryadlar tashkil qilindi.

Chin imperiyasi o'zining qo'shtirnoq ichidagi rivojlanayotgan Xitoyni qoyillatib boshqarmoqda edi. Yuqorida ta'kidlaganlarimizdek, imperiya o'zining siyosatida o'zini ko'ngli to'lmiyotganini bilardi, xalqni ozmuncha insonlarni yostig'ini quritgan imperiya juda tang axvolga duch kelganini o'zi ham yaxshi bilardi, uyg'urlar g'alayonlar ko'tarib charchashmasdi ularga faqatgina milliy ozodlik kerak bo'lgandi xolos, shuning uchun ham uyg'urlar Sharqiy Turkistonda amalga oshirgan siyosatida uyg'urlar tazyiq ostiga uchradilar.

1.2 Chin imperiyasi davrida Uyg'ur xalqining ijtimoiy-madaniy hayoti

Chin imperiyasi Sharqiy Turkistonni hukmronligini qo'lga kiritgandan so'ng Uyg'ur xalqini ijtimoiy hayoti tubdan o'zgara boshlaganini yuqorida ta'kidlagandik, uyg'ur xalqini madaniyati, urf odatlar, an'analari biz bilamizki qadimdan saqlanib qolgan. Chin imperiyasi Sharqiy Turkistonni bosib olgandan so'ng uyg'urlarni ko'pgina ijobiy xislatlari singib ketdi.

Uyg'urlar biz bilamiz mehnatsevarlikda va o'g'ir hayotga chidamliqlikda uyg'urlarga teng keladigan xalq kam topiladi. Musofirlikda yurganda bir birini qo'llash, bir joyga yig'ilib yashash, o'zgalarga sir boy bermaslik, o'z tilini va urf odatlarini saqlash millat manfaatni va mavqeini ximoya qilish, o'zga yurtlarda tez ko'nikish, yangi yashash joyining sharoitiga tez moslashish ko'zlagan maqsaddan qaytmaslik kabi xususiyatlar ularni tark etmadi. Buni xorijga borib boshqa xalq vakillariga uylangan va turmushga chiqqan uyg'urlarda ham kuzatish mumkin. O'zaro va o'zgalar bilan muomlada barcha kelishuvlarni xujjatlashtirishni yaxshi ko'radi. Og'zaki berilgan va'da asosli xisoblanmaydi, unga shunchaki ko'rsatilgan e'tibor deb qaraladi, bunday xatti xarakatlar Chin imperiyasini xayratga solar edi.

Uyg'urlar daosizm va konfusiylilik talimotiga, budda diniga va musulmon dinlariga e'tiqot qilar edilar. Ma'lumki, milodning dastlabki asrlarida ushbu din

uyg'urlarga Turkiston va Sharqiy Turkiston orqali tarqagan¹⁴. Ilk bor musulmon savdogarlari Xitoyning janubiy viloyatlariga dengiz yo'li bilan VII asrning 2-yarmida kelganlar. Lekin islom dini Sharqiy Turkistonga asosan VIII asrdan boshlab tarqalgan. Bu borada Buyuk Ipak yo'li orqali Sharqiy Turkistonga borin o'troqlashgan Turkistonlik musulmonlarining roli juda katta bo'lgan.

Islom dining tarqalishi natijasida Sharqiy Turkistonda dungon, tungon(turin qolgan degan so'zdan kelib chiqqan) deb atalmish yangi etnos shakllangan. Ushbu etnos tarkbiga turkiylar, arablar, forsiylar va boshqa xalqlar vakilari kirib ketgan. Chin imperiyasi uyg'urlarning sadoqatliyligiga tan berishardi, lekin sezdirishmasdi, manbalarda keltirilishicha, oddiy xalq vakilini uyidan juda ko'p miqdorda boyliklar topilgan ekan va tillolari ham borligini Chinlar bilganlar va uni qo'shnisidan aytishligini talab qilganlar, bilsada u lekin aytmadi va qilichdan o'tkazgan edilar, bu narsa uyg'urlarni bir birlar uchun mexrliyligini yaqqol ko'rsatib turadi. Ayni zamonda uyg'urlarning urf odatlari Xitoyliklar bilan jiplashib ketgandi, ularning urf odatlarida yuz bergan katta bir o'zgarish o'lganlarni dafn etishdan kuydirishga o'tishdir, ushbu o'zgarish Sharqiy Turkiston aholi soning ko'pligi va er tanqisligi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy muomolarni echish masalasi bilan aloqadordir.

Qadimiy a'nanaga ko'ra, uyg'urlar jasadni qattiq va qalin bir qarich atrofida keladigan taxtalardan maxsus uslub bilan yasalgan tobutga solib ko'mishgan. Har bir tobut ko'miladigan joy esa o'rta xisobda 2-3 kvadratga teng bo'lgan. Ayrim puldorlar bundan 2-3 baravar joyni egallashgan, urf odatga ko'ra, bitta jasad ko'milgan joyga oradan qancha vaqt o'tmasin, ikkinchi marotabada jasad qo'yish mumkin bo'lmagan. Zero abadiy deb xisoblangan ruh uchun dafn etilgan joy abadiy makon bo'lgan. Malumki, Sharqiy Turkiston aholi zich joylashgan o'lkalarida mavjud ekin erlarining umumiy miqdorini kishi boshiga bo'lganda 1 kvadrat metrdan ham to'g'ri kelmaydi.

Shuning uchun so'ngi davrda Uyg'ur aholisi ko'paygan sari mozorlar uchun ishlatilgan joy maydoning kengayib borishi ekin yerlar maydoning qisqarishga

¹⁴Xo'djaev A. Buyuk Ipak yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B. 40-41.

jiddiy tasir ko'rsatdi. Shunday qilib Chin imperiyasi uyg'urlarni yashash tarzlarini xayratga solardi. Sharqiy Turkiston budda va islom dinini Xitoyga tarqalashida vositachilik qilgan xududlardan biri xisoblanadi. Buddizm ushbu o'lkaga mil.avv II-I asrlarda tarqalgan. Bu o'lkada Xo'tan va Kuchar davlatlari ushbu dinning markazlari sifatida namoyon bo'lgan. Sharqiy Turkistonga islom VIII asrdan boshlab tarqalgan. Ammo ushbu dinning davlat diniga aylanishi X-asrda sodir bo'lgan. Shundan so'ng ushbu xudud islom dinining sharqqa tarqalishida muhim ahamiyat kasb etgan. Islom dini tarqalgan joylarda masjid va maqbaralar qurish ham tez rivojlangan. Shu bois o'lkada G'arb bilan Sharq madaniyat o'rtasida ko'prik vazifasini o'tadi, deb aytilishi to'la asoslidir.

Sharqiy Turkiston musiqa san'ati ham bir necha ming yillik tarixga ega. So'ngi 30 yil davomida XXR da nashr qilingan san'at sohasidagi oid bir nechta asarlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, G'arbiy Xan sulolasi xukmdori Gauzo Xo'tan musiqasi Xitoy poytaxti Chananda yangragan deb aytib o'tilgan. Sharqiy Turkiston musiqasi ijro etilgan va maxalliy xalq orasida katta qiziqish uyg'otgan. Turfonda topilgan tosh bitiklari ham qadim zamonlardan ushbu mintaqada yuksak saviyaga ega bo'lgan musiqa san'ati mavjudligi aks etirilgan. VII-VIII asrlarda yashagan yirik xitoy shoirlarining asarlarida ham Sharqiy Turkiston musiqasi Qadimgi Xitoyda sevib eshitilganligi qayd etilgan. Sharqiy Turkiston adabiyoti ham uzoq tarixga ega. Ammo ushbu o'lkada ko'p marotaba urush alangasida yonganligi tufayli yozma adabiy meroslarning aksariyat qismi yo'qolib ketgan. Ushbu o'lkada 24 xil yozuvda va 17 tilda bitilgan¹⁵ qo'lyozmalarning topilishi, ishlatilgan yozuvlarning ko'pligi bu yerdagi adabiy jarayon turli madaniyatlar ta'sirida bo'lganligini ko'rsatadi. X-asrda arab alifbosi joriy etilishi bilan mazkur jarayonga islom madaniyatining ta'siri kuchaygan. Chin imperiyasi davrida uyg'urlar o'z madaniyatlarini saqlab qolishga urnardilar, bir tomonda uyg'urlar o'zlarining namoishlarini kuchaytirshardi. Chin imperiyasi Sharqiy Turkistondagi yuqori harbiy lavozimlarni, serhosil, unumdor yerlarni egallab, aholidan turli soliqlar undira boshladilar, Davlat tepasida manjurlarning Chin sulolasiga mansub,

¹⁵ Xo'djaev A. Buyuk Ipak yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B. 47.

cheklanmagan mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan bog'dixonlar (imperatorlar) turar edilar. Xitoyning manjurlar tomonidan bosib olinishi uzoq davom etib, har qanday xalq qo'zg'olon lari qattiqqo'llik bilan bostirildi.

Chin imperiyasi hukmronligi davrida Sharqiy Turkistonda ijtimoiy va davlat siyosati sohasida deyarli o'zgarishlar ro'y bermadi. Ishlanadigan yerlarning katta qismi yer egalari tegishli bo'lib, dehqonlar yerga birlashtirilgan hamda ular hosilning teng yarmi ni pomeschchiklarga berishlari va boshqa qo'shimcha majburiyatlarni bajarishlari shart edi. Chin imperiyasi kuchli va mustaqil davlatligicha qolib, qo'shni davlatlar va mamlakatlarga nisbatan ustunlikni davolay qilar, xalq ongiga Xitoy dunyoning markazi va uning atrofidagilar unga bo'ysunishi kerak degan fikr zo'r berib singdirilardi, Min sulolasi o'rniga kelgan Chin imperiyasi hukmdorlari ichida imperator *Kansi* olib borgan siyosat diqqatga sazovor. Boshqaruv san'ati sirlari dan biri shunda ediki, ular Xitoy madaniyatini puxta o'zlashtirib, uning ilg'or an'analarini davom ettirdilar. Kansining o'zi ham o'z zamonining yetuk shaxsi bo'lib, harbiy sohada, ilm-fan, maorif, adabiyot sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishdi, Kansining farmoniga ko'ra xitoy tilining ko'p jildli lug'aviy to'plami tuzildi. Bu to'plam hozirgacha o'z qimmatini yo'qotmagan.

Kansi tashabbusi bilan yana bir asar yaratildi. U bir necha yuz jilddan iborat, bezakli qomusiy kitob bo'lib, unda barcha fanlarga tegishli ma'lumotlar mavjud, Uchinchi nodir asarda Xitoy mumtoz adabiyoti shoirlari, yozuvchilari, olimlari qalamiga mansub mashhur iboralarning mazmuni keng yoritilgan, Kansining adabiy merosi beqiyos, u hayotning turli jabhalarida o'chmas iz qoldirdi. Chin imperiyasi chegaralari Rossiya podsholigi yerlari kabi kengayib bordi. Chin imperiyasi o'zinining tashqi savdo aloqalarini ham kanda qilmadi, tashqi savdo faqat imperator amaldorlari nazorat ostida olib boriladigan tartib joriy etildi. Shunda ham tashqi savdo Guonjoua porti orqaligina olib boriladigan bo'ldi. Xitoyning o'zini o'zi yakallab qo'yish siyosati chirkin feodal tartiblarining saqlanishiga yordam berdi.

Uning iqtisodiy ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga katta zarar yetkazdi.

Imperator ma'murlari fan va texnika sohasida boshqa xalqlarining yutuqlarini rad etdilar. Mamlakat qoloqlik botqog'iga botib qoldi. Shunday bir sharoitda Buyuk Britaniya xukumati Xitoyni o'z savdogarlari uchun ochishga butun choralar bilan urindi. Chin imperatorning qaysarligini sindirish uchun unga bir boxona kerak edi.

Ingliz savdogarlari Xindistondan g'ayri qonuniy ravishda Xitoyga afyun kirita boshladilar. Maxalliy Sharqiy Turkiston ma'murlari afyun ortirilgan karvonlarni musodara qilganiga javoban ingliz xukumat afyunni va ingliz tovarlarining olib kirishini qonunlashtirish uchun, Xitoyga qarshi urush boshladi. Bu urush tarixga birinchi afyun urushi nomi bilan kirgan. Bu urush shiddat bilan boshlandi.

Buyuk Britaniya floti va qo'shinlari Chin qo'shining tor mor keltirdi. Sharqiy Turkistonning iqtisodiy va harbiy texnika jihatdan qoloqligi mag'lubiyatga sabab bo'ldi. Yomon qurollangan, Chin qo'shini inglizlarning eng yangi qudratli o't ochish qurollar bilan ta'minlangan qo'shini xujumini qaytara olmagan oqibatida Buyuk Britaniya Gonkong orolini bosib oldi va Sharqiy Turkistonni chet el savdogarlari uchun bir qator portlarni ochib qo'yish xaqidagi shartnomani imzolashga majbur edilar. Lekin Sharqiy Turkiston afyun olib kirilishini qonuniy ekanligini tan olmadi. Taslimchilik siyosati va zulm dehqonlarning qo'zg'olon ko'tarishiga olib keldi. Mamlakatda qudratli dehqonlar urush alanga oldi. Chin imperiyasiga va feodallariga qarshi kurash mustamlakachilarga qarshi kurash bilan qo'shilib ketdi. Qo'zg'olonchilarga dehqoning o'g'li Xun Syu syun boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar Yanszi viloyatida "Samoviy mo'l ko'pchilik davlati" barpo etganlar. Uning markazi Nankin shaxri bo'lgan. Xun Syu syun fikricha, bunday davlatda dehqonlar jamoa bo'lib yashashlari, jamoada xech bir narsada tengsizlik bo'lmasligi uchun hamma to'q va va kiyim but bo'lishi uchun dalaga ega bo'lgan xolda uni birgalikda ishlash, ovqat bo'lganida birgalikda tanavvul qilish, kiyim kechak bo'lganida ularni baravar taqsimlash, pul bo'lganida uni birgalikda sarflash lozim edi.

Aholi turmushi harbiy tartibda asosida qurilardi. Xar bir oilaning qo'shinga bitta askar yetkazib berishi belgilab qo'yildi, qism boshlig'i esa butun tumaning xokimi xisoblanardi. Shaxarlarda turmushini harbiylashtirish yanada ildamlanib

ketdi. Barcha erkaklar bitta mexnat lageriga, xotin qizlar va bolalar boshqa lagerlarga joylshtirilardi. Sharqiy Turkistonda qo'zg'olonga raxbarlik qilishga qodir siyosiy kuchning o'zi yo'q edi. Ko'pgina pomeschchiklar va savdogarlar Chin imperiyasga qarshi kurash uchun qo'zg'olonga qo'shildilaru ,lekin feodal tartiblarini tugatishga intilmadilar. Dehqonlar qo'g'alon rahbarlari orasida asta sekin nizolar yuzaga keldi. Dehqonlar orasida esa umidsilik kayfiyati kuchayib bordi. Bu esa manjur ma'murlari taypinlarni tor-mor keltirishda yordam berdi.

Unga Angliya va Fransiya, Amerika Qo'shma Shtatlari yordam ko'rsatdilar. Buyuk davlatlar Xitoyda inqirozga yuz tutgan Chin imperiyasi xukmronligi saqlanib qolishidan manfaatdor edilar. 1874-yilda xukumat qo'shinlari qo'zg'olon raxbarlari joylashgan Nankin shaxrini ishg'ol qildilar va shaxarning 100 mingdan ortiq ximoyachisini qirib tashladilar. Xun Syusyuan o'zini-o'zi o'ldirdi. Dehqonlar qo'zg'oloni bostirilgandan keyin chet el mustamlakalari Chin sulolasini qo'llab-quvvatlashlashni davom etirdlar va undan yangi yon berishlarga erishdilar. Dehqonlar qo'zg'olonlari Sharqiy Turkistonni zaiflashtirgan bo'lsada ,feodal jamiyati asoslarini o'zgartira olmadi. Xitoy iqtisodini asosini hamon qishloq xo'jaligi tashkil etardi. Aholining 3/4 qismi qishloq xo'jaligi bilan bandligicha qoldi. Dehqonlar kam yerlikdan aziyat chekardilar. Ular iqtisodiy jihatdan feodallarga to'la qaram edilar. Ijara xaqi xosil miqdorining 59 foizidan 70 foizgacha qismini tashkil etardi. 1881 yilda imperator taxtiga malika Sisi o'tirdi, u juda shavqatsiz hukmdor edi. O'zini "butun mamlakatlar onasi" deb xisoblar va u o'zini buddaga tenglashtirar edi.

Hukmdor mamlakatda yalpi nazorat tartibin o'rnatdi. Shunday bo'lsada, u Sharqiy Turkistoning qudratli davlatga aylantirish xarakatini boshlab bergan hukmdor sifatida nom qoldirgan. Bu dastur yo'lida 1881-yilda maxsus dastur e'lon qilindi. O'lkada zamonaviy harbiy sanoat korxonalarini qurilishi boshlandi, telegrafchilar artelariyachilar, zobitlar dengizchilar va kemasozlik mutaxasislari tayyorlo'vchi o'quv yurtlari ochildi, xatto Evropa tipidagi o'quv yurtlari ham faoliyat ko'rsata boshladi.

G'arb tipidagi o'quv yurtlarini ochilishi Yevropa ilm-fan yutuqlarini Sharqiy

Turkistonda ham tarqalshiga yo'l ochdi, shuningdek, Sharqiy Turkiston ziyolilari yangi avlodi shakllanishiga asos soldi. Chin imperiyasi o'zining qo'shtirnoq ichidagi rivojlanayotgan Xitoyni qoyillatib boshqarmoqda edi. Yuqorida ta'kidlaganlarimizdek, imperiya o'zining siyosatida o'zini ko'ngli to'lmayotganini bilardi, xalqni ozmuncha insonlarni yostig'ini quritgan imperiya juda tang ahvolga duch kelganini o'zi ham yaxshi bilardi, uyg'urlar g'alayonlar ko'tarib charchashmasdi ularga faqatgina milliy ozodlik kerak bo'lgandi xolos, shuning uchun ham uyg'urlar Sharqiy Turkistonda amalga oshirgan siyosatida uyg'urlar tazyiq ostiga qolgandilar. Uyg'urlar qadimda jun, ipak paxtadan maxsus dastgohlardan mato to'qishgan. 3-asrda ular tomondan ishlab chiqarilgan qog'oz arxelogik qazishmalar natijasida topilgan qog'oz nusxalarining eng qadimiysi xisoblangan¹⁶. Uyg'urlarning ijtimoiy siyosiy vaziyati qadimdan biz bilamiz, asosiy hayoti Chin (Manjur)lar bilan bevosita va bilvosita bo'g'liqdir va shuning uchun Chin imperiyasi davridagi uyg'urlarning hayoti ijtimoiy axvoli juda og'irlashdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Uyg'urlarning Chin imperiyasi hukmronligi davridagi ijtimoiy axvoli, bir muncha suslashdi. Lekin bu degani uyg'urlarning o'zligi va o'z urf odat va an'analari yo'qoldi degani emas, biz bilamizki nafaqat Sharqiy Turkiston balki butun dunyoga uyg'urlarning kim ekan va ularning madaniyati to'g'risida mir muncha tasavvurga egadirlar va o'zlarini madaniyatini saqlab qolgan xalqlardan biridir, shuning uchun ham uyg'urlar qayerda bo'lmasinlar, doim birga va bir birlarini qo'llaydilar va o'z o'rnilarini biladilar. Uyg'ur xalqi Chin hukmronligi davrida ijtimoiy hayotlari axyon axyon o'zgardi lekin o'zligini yo'qotmadi.

¹⁶Aytboyev A. Uyg'urlar // O'zME, 2005. 7-jild. -B. 622.

II.BOB. XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA XITOIY REVALUTSIYASI VA XITOIY XALQ RESPUBLIKASI DAVRIDA SHARQIY TURKISTON

II.1. XITOIYDA XIX I YARMIDA YIL INQILOBIY XARAKATLARI VA ULARNING SINZYAN (SHINJON) UYG'UR O'LKASI HAYOTIGA TA'SIRI HAYOTIGA TASIRI.

1911–1912 yillarda Xitoyda Manjurlarning sulolasi (1644–1911)ni ag'darib, Xitoy Respublikasini e'lon qilgan. Sinxay inqilobi g'alaba qozondi. Shubhasiz, bu voqea mamlakat tarixida avvalambor, etnik xalq – xitoyliklar hayotida tub burilish yasadi. Lekin milliy viloyatlarda jumladan, Sinszyan, ya'ni Sharqiy Turkiston uchun hech qanday ijobiy o'zgarishlarga olib kelmadi. Boshqaruvning harbiy byurokratik tarzi saqlanib qolaverdi. Masalan, Chin sulolasining Sharqiy Turkistondagi noibi Yuan Daxua o'zidan general – gubernatorlik lavozimini soqit qilib, uni Yan Szensinga topshiradi. U esa o'z navbatida, Yuan Daxuanning “o'ng qo'li” hisoblanardi.

Sinxay inqilobi Sharqiy Turkiston xalqlari uchun shundoq ham og'ir bo'lgan. Soliqlar yukining yanada og'irlashishi bilan o'z ifodasini topdi. Xitoyda inqilob g'alaba qozonganidan so'ng, 5 yil o'tib, ya'ni 1912 – 1916 yillar oralig'ida butun viloyat bo'yicha soliqlar o'rtacha 3 barobar oshirildi, alohida rayonlarda esa bundan ham ko'p edi. 1913 yildan 1916 yilgacha yer solig'i 3,2 barobar, chorvadan olinadigan soliq esa 19 barobar oshirildi. Yildan yilga soliqlarning yangi turlari paydo bo'lar edi.

Sinxay inqilobidan so'ng viloyatda soliqlarning oshirilishiga bir qancha olimlar sabab bo'lgan edilar. Chin imperiyasi davrida harbiy va ma'muriy xarajatlarning asosiy qismi mahalliy soliq to'lovchilar zimmasidan bo'lgan bo'lsada, ma'lum bir qismi har holda imperator xazinasini tomonidan qoplanar edi. Masalan, Sharqiy Turkistondagi Xitoy noiblarining harbiy–ma'muriy xarajatlari uchun imperator Szyanlun davrida 600 ming kumush sar ajratilgan bo'lsa,

imperator Kansi davrida esa 3 mln. Sar, Chin sulolasi tugatilgunga qadar 2 mln. 400 ming sar miqdoridagi pul mablag'i ajratilgan edi. Inqilobdan keyin Xitoyda yuzaga kelgan siyosiy inqiroz tufayli markazdan keladigan pul mablag'lari butunlay to'xtatildi. Shundan so'ng viloyatlardagi mahalliy hukmdorlar bu mablag'lar o'rnini mahalliy aholiga ko'proq soliq solish bilan to'ldirmoqchi bo'ldilar. Bu holatni Yan Szyansinning 1915 yil 29 aprelda Pekinga yuborgan xatida ham kuzatish mumkin:

“Respublika tashkil topgach, sizning kamtarin qulingiz Szyansin yuzaga kelgan og'ir vaziyatni hamda tashqaridan keladigan yordamning og'irligini hisobga olib, viloyatning o'z zaxiralaridan foydalanishga majbur ekanligini ma'lum qiladi. Soliq to'lovlari qanchalik mumkin bo'lsa, shunchalik darajada oshirildi”.

Yan Szensin Urumchida turib joriy etayotgan yangicha soliq turlari mahalliy aholiga 2 barobar ko'paygan ko'rinishida yetib kelar edi. Soliq to'lovlarni yig'ishga mas'ul bo'lgan okrug, uezd va qishloqdagi amaldorlar mahalliy xalqqa zulm o'tkazar edilar.

Soliqlarning oshirilishiga yana bir sabab bu Xitoy rahbarlarining bu siyosiy beqaror viloyatni Xitoyning boshqa viloyatlariga integratsiyasini kuchaytirish edi. Chin imperiyasi davridayoq Sharqiy Turkistonning imperiya siyosiy hayotidagi katta ahamiyatga ega bo'lgan viloyat ekanligi tan olingan edi. Shu bois, bu viloyatni o'zlashtirish va uni to'liq Xitoy tasarufiga o'tkazish uchun ko'plab Xitoy amaldorlari vaqtida bir qancha turli xil loyihalar bilan chiqishgan edi. Bunga misol qilib, Gun Szigjen, Lin Szeshu, Szo Szuptan va boshqalarning “Sin Szyanni ochish va saqlab qolish” borasidagi loyihalarni keltirish mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, bu loyihalarning barchasida Sharqiy Turkistonning ichki viloyatlariga aholini ommaviy ravishda olib kelib joylashtirish rejasi mavjud bo'lgan. Sun Yatsenning o'zi ham bu ishda “chetda qolmagan”. U o'zining “Sin szyanni ochish to'g'risidagi ulug'vor reja” asarida Sharqiy Turkistonga xitoyliklarni ko'chirib olib kelib, joylashtirish siyosati haqida ham so'z yuritgan edi”. U bu asarida Xitoyning Sharqiy va Janubiy sharqiy hududlarida yashaydigan aholini Mo'g'uliston va

Sharqiy Turkistonga ko‘chirish haqida yozadi. Bunda u AQSh, Kanada va Avstraliya kabi davlatlarning yangi yerlarini o‘zlashtirish borasidagi tajribalarini o‘rganadi. Sun Yatsen xitoyliklarni ommaviy ko‘chirishni transport tizimi, ya’ni temir yo‘lsiz amalga oshirish juda qiyin ekanligini yaxshi tushunardi. Shu tariqa uning jami uzunligi 100 ming km. Bo‘lgan Xitoyda temir yo‘l tizimini qurish rejasi yuzaga keldi. Bu rejada Sharqiy Turkistonga va uning ichkarisi bo‘ylab 14 ta temir yo‘l magistrali liniyasini qurish ham mavjud edi.

Xitoyda boshqaruvning respublika shakli e‘lon qilingach, Gansu viloyatidan bir necha yuzlab oilalar Sharqiy Turkistonning tub aholisidan tortib olingan yerlariga majburan ko‘chirib olib kelinib joylashtirildi. Bu ham yetmaganday, mahalliy aholiga kelgindilarni kerakli xo‘jalik, uy-ro‘zg‘or buyumlari bilan ta‘minlash buyuriladi.

1913 yildan boshlab esa viloyatning barcha shahar va qishloqlarida xitoy maktablari qurila boshlandi. Xitoy tilida o‘qitiladigan bu maktablar xitoylik amaldorlar nazorati ostida va tub aholi puliga qurilardi. Mahalliy aholi orasida norozilik kayfiyati kuchayishiga bu gal iqtisodiy qiyinchilik emas, balki ularning farzandlarining yangi ochilgan bu maktablarga majburan kirgizilishi sabab bo‘ldi. M.Bag‘raning guvohlik berishicha, “bolalarni ko‘chaning o‘zida ushlab olishar va maktablarga sudrab olib ketishar edi. Beklar, oxunlar (qozilar va muftiylar) va yuzboshilarga o‘ntadan yuztagacha bola olib kelish buyurilardi, buyruq bajarilmasa vazifasidan chetlatish, qamoqqa tashlash va turli xil jarima solish bilan ularga tahdid solinar edi”.

Xitoy rahbarlarining barcha sa’y–harakatlariga qaramay, Sharqiy Turkistonliklarning asosiy ko‘pchiligi bosqinchilarning tili va yozuvini bilmasdi va hatto tan olmasdi. Mahalliy bolalar madrasalarga va yangi jadid maktablariga borishda davom etishardi. Xitoy rahbarlari bu ta’lim dargohlarini butunlay yopishga kirishdi. Vaqf mulklari ham musodara etildi. Yangi qurilayotgan xitoy maktablarida xitoy tili va yozuvi, qadimgi xitoy faylasuflari Konfusiylar, Men–Szi, shuningdek, xitoy adabiyoti o‘rgatilar edi.

Yuqoridagi voqea–hodisalarni o‘rgangan M.Bag‘ra quyidagilarni ta’kidlagan edi: “(Xitoy) respublikasi asoschisi Sun Yatsen tomonidan ishlab chiqilgan Sharqiy Turkiston bo‘yicha reja juda ham yomon reja bo‘lib, imperiya davridagi istilochilik rejalaridan hech ham farq qilmas edi va “...Sinxay inqilobi Sharqiy Turkistonga zarardan boshqa hech narsa bermadi”.

Markaziy hokimiyat o‘z rejalarini hayotga tadbiq etishda davom etganida bu zarar ko‘lami yana ham katta bo‘lishi mumkin edi. Lekin respublika tashkil topganining uchinchi yilidayoq, Xitoy rahbarlarini Sharqiy Turkiston bilan ishlari bo‘lmay qoldi. Ular bundan ham keskinroq bo‘lgan boshqa muammoga duch kelgan edilar. 1914 yilda Yaponiya Shandun viloyatini bosib oldi va Xitoy uchun haqoratli bo‘lgan talablar bilan ultimatum qo‘ydi. Bu voqea bilan bir vaqtda yuqori hokimiyat tizimida bo‘linish sodir bo‘ldi: Shimolda Yuan Shikay hokimiyati va Janubda Sun Yatsen hokimiyati qaror topdi. Ko‘p o‘tmay, ular o‘rtasida o‘zaro urush boshlandi.

Bu vaqtga kelib, Yan Szensin o‘lkada mustaqil siyosat yurgizishga harakat qila boshladi. Shuningdek, u Xitoy Respublikasi parlamentiga va Xalq vakillari Kengashiga o‘ziga moyil bo‘lgan kishilarni jo‘natar edi. Bunday deputatlardan biri Abdullabek “Sharqiy Turkiston tarixi” muallifiga quyidagilarni so‘zlar bergan edi: “Xitoyga beradigan Sharqiy Turkiston vakillari o‘z vatani va millati uchun qilchalik foyda keltirishmaydi, chunki Yan Szensinning topshiriqlariga ko‘ra, biz Xitoyda uning boshqaruv tizimini maqtashimiz, uning manfaatlarini uchun tashviqot o‘tkazishimiz va Xitoy hukumatining Sharqiy Turkiston borasidagi har qanday rejalarini haqida unga zudlik bilan xabar berishimiz, agar bu rejalar Yan Szensin manfaatlariga to‘g‘ri kelmasa, ularni rad qilishimiz zarur edi. Bir kuni Xitoy hukumati parlamentga Sharqiy Turkistonda temir so‘l qurish haqidagi qonun loyihasini taqdim qilgan edi. Yan Szensin bu qonun loyihasida o‘z hokimiyati uchun xavfni ko‘radi. Shuning uchun biz katta qiyinchiliklar bilan bo‘lsa–da, bu loyihani rad qilishga majbur bo‘ldik. Boshqa bir kuni esa parlamentga turkiy xalq vakillarini xo‘jalik, moliyaviy va ba’zi harbiy mansablarga tayinlash haqidagi qonun loyihasi taqdim etilgan edi. Shu yo‘l bilan Sharqiy Turkiston xalqlarini

asta—sekin o‘zini—o‘zi boshqarishga tayyorlash, so‘ngra esa bu o‘lkaga muxtoriyat berish ko‘zda tutilgan edi. Biz bu loyihani ham qabul qilmadik, yana: “Sharqiy Turkiston xalqlari orasida davlatning xo‘jalik, moliyaviy va harbiy ishlari bilan shug‘ullanishga loyiq odam yo‘q. Xalqning o‘zi ham muxtoriyatni xohlamaydi. Xalq Yan Szensin va uning amaldorlari yuritayotgan odilona siyosatidan rozi bo‘lib yashamoqda” deb aytib ham o‘tdik. Xalq ichidan chiqqan mana shunday xoinlarning pastkashliklari kelajakda uyg‘ur xalqi uchun og‘ir oqibatlarga olib keldi.

Markaziy hukumatning ba‘zi qarorlarini bekor qilishda Yan Szensin, o‘zi doim ta’kidlaganidek, Sharqiy Turkiston aholisining ijtimoiy—iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda emas, balki o‘zining shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirardi. Uning bu maqsadlari Xitoy respublikasi markaziy hukumati inqirozga uchragach, ochiq—oydin namoyon bo‘ldi.

Ichki viloyatlarda boshboshdoqlik, tartibsizlik yuzaga kela boshlagach, Yan Szensin viloyatni o‘z xohishiga ko‘ra boshqarishga kirishdi. U Temur Xalfa, Mo‘ydin va Ahmadlar boshchiligidagi Qumul va Turfandagi qo‘zg‘olonlarni bostiradi.

Yan Szensin qadimgi xitoy faylasufi Lao—Szi qo‘llanmalarini hayotga tadbiq etib, “yopiq eshiklar siyosati”ni qo‘llay boshladi. U Sharqiy Turkistonni nafaqat Xitoyning boshqa viloyatlari bilan aloqalarini chekladi, balki o‘lkaning ichkarisidagi shahar va qishloqlarni ham o‘zaro aloqa qilishlariga ham yo‘l qo‘ymadi. Shu bilan bir vaqtda u sevimli faylasuf Lao—Szi postulatlariga tayangan holda xalqni nodonlikda saqlash siyosatini ham olib bordi. Yan Szensin o‘z qaydlarida “mamlakatni boshqarish ziyolilar soni ko‘payganda og‘irlashadi, aynan ziyolilar yo‘q joydan muammo paydo qilishadi, mamlakatda tartibsizliklarni keltirib chiqaradilar, shuning uchun qadimda hukmdorlar o‘z fuqarolarini aqqli qilib emas, balki zolim qilib tarbiyalar edilar, ... agar xalq itoatkor bo‘lsa, uni boshqarish shunga oson bo‘ladi” deb yozgan edi. U Sharqiy Turkiston xalqlarini “qadimiylilik”ka qaytarish uchun butun sa’y—harakatini ishga soldi. Birinchi zarba

milliy nashrlarga kutubxonalarga va maktablarga qarshi qaratildi. Shu jumladan, yangi usul (jadid) maktablari vaqtli matbuot nashrlari ham to'xtatildi.

Yan Szensin o'lkada yirik mashinaviy sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga ham yo'l qo'ymaydi. U zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, yo'lga qo'yilgan sanoat ishlab chiqarishi bir tomondan dangasalikni keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan, jamiTning boy va kambag'allar qatlamlariga ajralishiga sabab bo'ladi deb hisoblar edi. Sinfy qarama-qarshilik esa inqilobga, qo'zg'olonga aylanishi turgan gap. Bularning barchasini oldini olish uchun qo'l mehnatini, natural shaklidagi xo'jalikni "qo'llab-quvvatlash" lozim edi.

Yan Szensin tomonidan olib borilgan bunday siyosiy tadbirlar o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Butun Sharqiy Turkistonda ijtimoiy-siyosiy hayot, oz muddatga bo'lsada, butunlay to'xtab qoldi. Buni ko'pgina xorijliklarning guvohliklaridan ham bilish mumkin.

RSFSR Tashqi ishlar xalq komissarligi vakili O.G. Barshak keltirgan qaydlardan Ili o'lkasi misolida butun Sharqiy Turkistondagi holat aniq ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin: "Ili o'lkasidagi qashshoqlik haqiqatda juda dahshatli tus olgan. U (Ili o'lkasi) mamlakatdagi bironta siyosiy jarayonda ishtirok etmaydi va shu tariqa xasis, yovvoyi va kolonizator xitoy hukumatining qurboniga aylanmoqda".

Yan Szensin o'lim jazosi yoki muddatsiz ozodlikdan mahrum qilish tahdidi bilan mahalliy aholiga hech qanday zaxira bilan ta'minlanmagan qog'oz pullarni majburan o'tkazdiraradi. Bu qog'oz pullar ma'lum okruglarda boshqa okruglarga nisbatan turli ayirboshlash qiymatiga ega edi. U bu murakkab tizimni turli inqiloblardan saqlanish uchun joriy qilgan edi. Ma'lumki, hech bir qo'zg'olon moliyalashtirishsiz amalga oshmaydi, bir necha xil pullar muomalada bo'lgan holda esa katta pul o'tkazmalarini aniqlashning imkoni bo'ladi. Qolaversa, qo'zg'olon vaqtida har qaysi okrugda qog'oz pul qadri tushib ketishi va qo'zg'olonchilarni moddiy zaxiralarsiz qoldirishi mumkin bo'lardi.

Aslida Yan Szensin dastlab butun Sharqiy Turkiston uchun yagona pul tizimini joriy qilgan edi, lekin bunda ba'zi firibgarlik usullari qoldirilgan edi.

Masalan, qog‘oz pullar tilla, kumush va boshqa qimmatbaho buyumlar evaziga tadbiq qilinar edi, lekin bunda teskari operatsiya o‘tkazilmas edi, ya’ni oltin, kumush va boshqa zargarlik buyumi evaziga qog‘oz pullarni sotib olish mumkin, lekin qog‘oz pulga tilla, kumush sotib olishning imkoniyati yo‘q edi. Shu yo‘l bilan Yan mahalliy aholi tilla va kumushining 90%ini o‘z cho‘ntagiga to‘pladi, xalqni esa yirtiq qog‘ozlar bilan birga qoldirdi.

Ma’lumki, bir okrugda hech qanday qiymatga ega emas edi. Shu bois, masalan, Janubiy Sinszyan savdogarlari shimoldagi savdo-sotiqdan tushgan (“shimoliy”) pullarini Urumchidagi hukumat xazinasiga topshirishlari, bu yerdan chek olib, Qoshg‘ar yoki Xo‘tanda mahalliy (“janubiy”) pullarga ayirboshlashga majbur edilar. Bunday pul operatsiyalari dastlab hech qanday pul to‘lovlarisiz o‘tkazilgan bo‘lsa, keyinchalik oradan 5-6 oy o‘tgach, xizmat haqi uchun jami topshiriladigan summaning 20%i ushlab qolinadigan bo‘ldi. Keyinchalik bu raqamlar oshib bordi. Savdogarlar o‘z yo‘qotishlarini tovarlarga narxni oshirish yo‘li bilan qoplashga urindilar. Albatta, nima bo‘lganda ham, bularning barchasidan oddiy xalq eng ko‘p jabr ko‘rdi.

1912 yilda o‘lkada boshlangan vabo epidemiyasi 6-7 yil ichida yuz minglab insonlarning yostig‘ini quritdi. Bir xitoylik o‘z kundalik qaydnomalarida vabo epidemiyasi episentrida bo‘lib qolgan “Xo‘tan, Keri va Lop uездlarining o‘zida 100 mingga yaqin inson o‘lganligini, Lop uездida 30 mingdan ortiq inson o‘lgani, Xo‘tan atroflarida esa o‘lim ko‘rsatkichi juda yuqori bo‘lgani bois, har o‘n oiladan to‘qqiztasi butunlay o‘lganligi”ni yozib qoldirgan edi.

XX asrning o‘ninchi yillari o‘rtalarida butun o‘lkani qamrab olgan qurg‘oqchilik ham juda katta talafotlarga sabab bo‘ldi. Birinchi jahon urushi va uning o‘lkaga ta’siri Sharqiy Turkiston iqtisodiyotini izdan chiqarib yubordi. 1914 yilda urush boshlanishi bilan Sharqiy Turkistonning Rossiya va Angliya bilan olib borgan savdo-iqtisodiy aloqalari barham topdi. Bir tomondan, bu mahalliy aholi ishlab chiqaradigan xom-ashyo mahsulotlarining sotilmay qolib ketishiga olib kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, keng iste’mol mahsulotlari taqchilligiga olib keldi.

Sharqiy Turkistonning Xitoy ma'murlari esa mahalliy aholiga ko'pdan-ko'p davlat va mahalliy soliqlar solish bilan zulm o'tkazishda davom etdi. Bularning barchasi o'lka tub aholisini mutloq qashshoqlanishiga hamda halokat yoqasiga keltirib qo'ydi.

1911–1912 yillarda Xitoyda Mangjurlarning Sin sulolasi (1644–1911)ni ag'darib, Xitoy Respublikasini e'lon qilgan Sinxay inqilobi g'alaba qozondi. Shubhasiz, bu voqea mamlakat tarixida avvalambor, etnik xalq – xitoyliklar hayotida tub burilish yasadi. Lekin milliy viloyatlarda jumladan, Sinszyan, ya'ni Sharqiy Turkiston uchun hech qanday ijobiy o'zgarishlarga olib kelmadi. Boshqaruvning harbiy byurokratik tarzi saqlanib qolaverdi. Masalan, Sin sulolasining Sharqiy Turkistondagi noibi Yuan Daxua o'zidan general–gubernatorlik lavozimini soqit qilib, uni Yan Szensinga topshiradi. U esa o'z navbatida, Yuan Daxuanning “o'ng qo'li” hisoblanardi¹⁷.

Sinxay inqilobi Sharqiy Turkiston xalqlari uchun shundoq ham og'ir bo'lgan. Soliqlar yukining yanada og'irlashishi bilan o'z ifodasini topdi. Xitoyda inqilob g'alaba qozonganidan so'ng, 5 yil o'tib, ya'ni 1912–1916 yillar oralig'ida butun viloyat bo'yicha soliqlar o'rtacha 3 barobar oshirildi, alohida rayonlarda esa bundan ham ko'p edi. 1913 yildan 1916 yilgacha yer solig'i 3,2 barobar, chorvadan olinadigan soliq esa 19 barobar oshirildi. Yildan yilga soliqlarning yangi turlari paydo bo'lar edi¹⁸.

Sinxay inqilobidan so'ng viloyatda soliqlarning oshirilishiga bir qancha omillar sabab bo'lgan edilar. Sin imperiyasi davrida harbiy va ma'muriy xarajatlarning asosiy qismi mahalliy soliq to'lovchilar zimmasidan bo'lgan bo'lsada, ma'lum bir qismi har holda imperator xazinasini tomonidan qoplanar edi. Masalan, Sharqiy Turkistondagi Xitoy noiblarining harbiy–ma'muriy xarajatlari uchun imperator Szyanlun davrida 600 ming kumush sar ajratilgan bo'lsa, imperator KAnsi davrida esa 3 mln. sar, Sin sulolasi tugatilgunga qadar 2 mln. 400 ming sar miqdoridagi pul mablag'i ajratilgan edi. Inqilobdan keyin Xitoyda yuzaga

¹⁷ Фань Вэнь Лань. Новая история Китая. – М., 1955. – С.66.

¹⁸ Ефимов Г. Очерки по новой и новейшей истории Китая. – М., 1961. –С.88.

kelgan siyosiy inqiroz tufayli markazdan keladigan pul mablagʻlari butunlay toʻxtatildi. Shundan soʻng viloyatlardagi mahalliy hukmdorlar bu mablagʻlar oʻrnini mahalliy aholiga koʻproq soliq solish bilan toʻldirmoqchi boʻldilar. Bu holatni Yan Szyansinning 1915 yil 29 aprelda Pekinga yuborgan xatida ham kuzatish mumkin:

“Respublika tashkil topgach, sizning kamtarin qulingiz Szyansin yuzaga kelgan ogʻir vaziyatni hamda tashqaridan keladigan yordamning ogʻirligini hisobga olib, viloyatning oʻz zaxiralaridan foydalanishga majbur ekanligini maʼlum qiladi. Soliq toʻlovlari qanchalik mumkin boʻlsa, shunchalik darajada oshirildi”¹⁹.

Yan Szensin Urumchida turib joriy etayotgan yangicha soliq turlari mahalliy aholiga 2 barobar koʻpaygan koʻrinishida yetib kelar edi. Soliq toʻlovlarni yigʻishga masʼul boʻlgan okrug, uezd va qishloqdagi amaldorlar mahalliy xalqqa zulm oʻtkazar edilar.

Soliqlarning oshirilishiga yana bir sabab bu Xitoy rahbarlarining bu siyosiy beqaror viloyatni Xitoyning boshqa viloyatlariga integratsiyasini kuchaytirish edi. Sin imperiyasi davridayoq Sharqiy Turkistonning imperiya siyosiy hayotidagi katta ahamiyatga ega boʻlgan viloyat ekanligi tan olingan edi. Shu bois, bu viloyatni oʻzlashtirish va uni toʻliq Xitoy tasarufiga oʻtkazish uchun koʻplab Xitoy amaldorlari vaqtida bir qancha turli xil loyihalar bilan chiqishgan edi. Bunga misol qilib, Gun Szigjen, Lin Szeshe, Szo Szuptan va boshqalarning “Sin Szyanni ochish va saqlab qolish” borasidagi loyihalarni keltirish mumkin. Shuni taʼkidlash lozimki, bu loyihalarning barchasida Sharqiy Turkistonning ichki viloyatlariga aholini ommaviy ravishda olib kelib joylashtirish rejasi mavjud boʻlgan. Sun Yat Senning oʻzi ham bu ishda “chetda qolmagan”. U oʻzining “Sin szyanni ochish toʻgʻrisidagi ulugʻvor reja” asarida Sharqiy Turkistonga xitoyliklarni koʻchirib olib kelib, joylashtirish siyosati haqida ham soʻz yuritgan edi”. U bu asarida Xitoyning Sharqiy va Janubiy sharqiy hududlarida yashaydigan aholini Moʻgʻuliston va Sharqiy Turkistonga koʻchirish haqida yozadi. Bunda u AQSh, Kanada va

¹⁹ Синьцзян–уйгурский автономный район Китая. –Мас.мух. Попкова М.Д. –Алма–Ата, 1980. –С.111.

Avstraliya kabi davlatlarning yangi yerlarini o'zlashtirish borasidagi tajribalarini o'rganadi. Sun Yat Sen xitoyliklarni ommaviy ko'chirishni transport tizimi, ya'ni temir yo'lsiz amalga oshirish juda qiyin ekanligini yaxshi tushunardi. Shu tariqa uning jami uzunligi 100 ming km bo'lgan Xitoyda temir yo'l tizimini qurish rejasi yuzaga keldi. Bu rejada Sharqiy Turkistonga va uning ichkarisi bo'ylab 14 ta temir yo'l magistrali liniyasini qurish ham mavjud edi²⁰.

Xitoyda boshqaruvning respublika shakli e'lon qilingach, Gansu viloyatidan bir necha yuzlab oilalar Sharqiy Turkistonning tub aholisidan tortib olingan yerlariga majburan ko'chirib olib kelinib joylashtirildi. Bu ham yetmaganday, mahalliy aholiga kelgindilarni kerakli xo'jalik, uy-ro'zg'or buyumlari bilan ta'minlash buyuriladi.

1913 yildan boshlab esa viloyatning barcha shahar va qishloqlarida xitoy maktablari qurila boshlandi. Xitoy tilida o'qitiladigan bu maktablar xitoylik amaldorlar nazorati ostida va tub aholi puliga qurilardi. Mahalliy aholi orasida norozilik kayfiyati kuchayishiga bu gal iqtisodiy qiyinchilik emas, balki ularning farzandlarining yangi ochilgan bu maktablarga majburan kirgizilishi sabab bo'ldi. M.Bag'raning guvohlik berishicha, "bolalarni ko'chaning o'zida ushlab olishar va maktablarga sudrab olib ketishar edi. Beklar, oxunlar (qozilar va muftiylar) va yuzboshilarga o'ntadan yuztagacha bola olib kelish buyurilardi, buyruq bajarilmasa vazifasidan chetlatish, qamoqqa tashlash va turli xil jarima solish bilan ularga tahdid solinar edi"²¹.

Xitoy rahbarlarining barcha sa'y-harakatlariga qaramay, sharqiy turkistonliklarning asosiy ko'pchiligi bosqinchilarning tili va yozuvini bilmasdi va hatto tan olmasdi. Mahalliy bolalar madrasalarga va yangi jadid maktablariga borishda davom etishardi. Xitoy rahbarlari bu ta'lim dargohlarini butunlay yopishga kirishdi. Vaqf mulklari ham musodara etildi. Yangi qurilayotgan xitoy

²⁰ Исследования по уйгуроведению: филология, история, экономика. Мас.мух.Толипов К. –Алма-Ата, 1999. –С.100

²¹ Боғра М. Шарқий Туркистон тарихи. Анқара, 1987. –Б.490.

maktablarida xitoy tili va yozuvi, qadimgi xitoy faylasuflari Konfutsiy, Men–Szi, shuningdek, xitoy adabiyoti o‘rgatilar edi²².

Yuqoridagi voqea–hodisalarni o‘rgangan M.Bug‘ra quyidagilarni ta’kidlagan edi: “(Xitoy) respublikasi asoschisi Sun Yat Sen tomonidan ishlab chiqilgan Sharqiy Turkiston bo‘yicha reja juda ham yomon reja bo‘lib, imperiya davridagi istilochilik rejalaridan hech ham farq qilmas edi va ...Sinxay inqilobi Sharqiy Turkistonga zarardan boshqa hech narsa bermdi”.

Markaziy hokimiyat o‘z rejalarini hayotga tadbiq etishda davom etganida bu zarar ko‘lami yana ham katta bo‘lishi mumkin edi. Lekin respublika tashkil topganining uchinchi yilidayoq, xitoy rahbarlarini Sharqiy Turkiston bilan ishlari bo‘lmay qoldi. Ular bundan ham keskinroq bo‘lgan boshqa muammoga duch kelgan edilar. 1914 yilda Yaponiya Shandun viloyatini bosib oldi va Xitoy uchun haqoratli bo‘lgan talablar bilan ultimatum qo‘ydi. Bu voqea bilan bir vaqtda yuqori hokimiyat tizimida bo‘linish sodir bo‘ldi: Shimolda Yuan Shikay hokimiyati va Janubda Sun Yatsen hokimiyati qaror topdi. Ko‘p o‘tmay, ular o‘rtasida o‘zaro urush boshlandi.

Bu vaqtga kelib, Yan Szensin o‘lkada mustaqil siyosat yurgizishga harakat qila boshladi. Shuningdek, u Xitoy Respublikasi parlamentiga va Xalq vakillari Kengashiga o‘ziga moyil bo‘lgan kishilarni jo‘natar edi. Bunday deputatlardan biri Abdullabek “Sharqiy Turkiston tarixi” muallifiga quyidagilarni so‘zlar bergan edi: “Xitoyga beradigan Sharqiy Turkiston vakillari o‘z vatani va millati uchun qilchalik foyda keltirishmaydi, chunki Yan Szensinning topshiriqlariga ko‘ra, biz Xitoyda uning boshqaruv tizimini maqtashimiz, uning manfaatlari uchun tashviqot o‘tkazishimiz va Xitoy hukumatining Sharqiy Turkiston borasidagi har qanday rejaları haqida unga zudlik bilan xabar berishimiz, agar bu rejalar Yan Szensin manfaatlariga to‘g‘ri kelmasa, ularni rad qilishimiz zarur edi. Bir kuni Xitoy hukumati parlamentga Sharqiy Turkistonda temir yo‘l qurish haqidagi qonun loyihasini taqdim qilgan edi. Yan Szensin bu qonun loyihasida o‘z hokimiyati uchun xavfni ko‘radi. Shuning uchun biz katta qiyinchiliklar bilan bo‘lsa-da, bu

²² Фань Вэнь Лань. Ўша асар, –Б.80.

loyihani rad qilishga majbur bo'ldik. Boshqa bir kuni esa parlamentga turkiy xalq vakillarini xo'jalik, moliyaviy va ba'zi harbiy mansablarga tayinlash haqidagi qonun loyihasi taqdim etilgan edi. Shu yo'l bilan Sharqiy Turkiston xalqlarini asta-sekin o'zini-o'zi boshqarishga tayyorlash, so'ngra esa bu o'lkaga muxtoriyat berish ko'zda tutilgan edi. Biz bu loyihani ham qabul qilmadik, yana: "Sharqiy Turkiston xalqlari orasida davlatning xo'jalik, moliyaviy va harbiy ishlari bilan shug'ullanishga loyiq odam yo'q. Xalqning o'zi ham muxtoriyatni xohlamaydi. Xalq Yan Szensin va uning amaldorlari yuritayotgan odilona siyosatidan rozi bo'lib yashamoqda" deb aytib ham o'tdik. Xalq ichidan chiqqan mana shunday xoinlarning pastkashliklari kelajakda uyg'ur xalqi uchun og'ir oqibatlarga olib keldi.

Markaziy hukumatning ba'zi qarorlarini bekor qilishda Yan Szensin, o'zi doim ta'kidlaganidek, Sharqiy Turkiston aholisining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda emas, balki o'zining shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirardi. Uning bu maqsadlari Xitoy respublikasi markaziy hukumati inqirozga uchragach, ochiq-oydin namoyon bo'ldi.

Ichki viloyatlarda boshboshdoqlik, tartibsizlik yuzaga kela boshlagach, Yan Szensin viloyatni o'z xohishiga ko'ra boshqarishga kirishdi. U Temur Xalfa, Mo'ydin va Ahmadlar boshchiligidagi Qumul va Turfandagi qo'zg'olonlarni bostiradi.

Yan Szensin qadimgi xitoy faylasufi Lao-Szi qo'llanmalarini hayotga tadbiq etib, "yopiq eshiklar siyosati"ni qo'llay boshladi. U Sharqiy Turkistonni nafaqat Xitoyning boshqa viloyatlari bilan aloqalarini chekladi, balki o'lkaning ichkarisidagi shahar va qishloqlarni ham o'zaro aloqa qilishlariga ham yo'l qo'ymadi. Shu bilan bir vaqtda u sevimli faylasuf Lao-Szi postulatlariga tayangan holda xalqni nodonlikda saqlash siyosatini ham olib bordi. Yan Szensin o'z qaydlarida "mamlakatni boshqarish ziyolilar soni ko'payganda og'irlashadi, aynan ziyolilar yo'q joydan muammo paydo qilishadi, mamlakatda tartibsizliklarni keltirib chiqaradilar, shuning uchun qadimda hukmdorlar o'z fuqarolarini aqlli qilib emas, balki zolim qilib tarbiyalar edilar, ... agar xalq itoatkor bo'lsa, uni

boshqarish shunga oson bo‘ladi” deb yozgan edi. U Sharqiy Turkiston xalqlarini “qadimiylilik”ka qaytarish uchun butun sa’y–harakatini ishga soldi. Birinchi zarba milliy nashrlarga kutubxonalarga va maktablarga qarshi qaratildi. Shu jumladan, yangi usul (jadid) maktablari vaqtli matbuot nashrlari ham to‘xtatildi.

Yan Szensin o‘lkada yirik mashinaviy sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga ham yo‘l qo‘ymaydi. U zamonaviy texnika bilan ta‘minlangan, yo‘lga qo‘yilgan sanoat ishlab chiqarishi bir tomondan dangasalikni keltirib chiqarsa, ikkinchi tomondan, jamiyatning boy va kambag‘allar qatlamlariga ajralishiga sabab bo‘ladi deb hisoblar edi. Sinfy qarama-qarshilik esa inqilobga, qo‘zg‘olonga aylanishi turgan gap. Bularning barchasini oldini olish uchun qo‘l mehnatini, natural shaklidagi xo‘jalikni “qo‘llab-quvvatlash” lozim edi.

Yan Szensin tomonidan olib borilgan bunday siyosiy tadbirlar o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmadi. Butun Sharqiy Turkistonda ijtimoiy-siyosiy hayot, oz muddatga bo‘lsada, butunlay to‘xtab qoldi. Buni ko‘pgina xorijliklarning guvohliklaridan ham bilish mumkin.

RSFSR Tashqi ishlar xalq komissarligi vakili O.G. Barshak keltirgan qaydlardan Ili o‘lkasi misolida butun Sharqiy Turkistondagi holat aniq ifodalanganligini ko‘rishimiz mumkin: “Ili o‘lkasidagi qashshoqlik haqiqatda juda dahshatli tus olgan. U (Ili o‘lkasi) mamlakatdagi bironta siyosiy jarayonda ishtirok etmaydi va shu tariqa xasis, yovvoyi va kolonizator xitoy hukumatining qurboniga aylanmoqda”²³.

Yan Szensin o‘lim jazosi yoki muddatsiz ozodlikdan mahrum qilish tahdidi bilan mahalliy aholiga hech qanday zaxira bilan ta‘minlanmagan qog‘oz pullarni majburan o‘tkazdiraradi. Bu qog‘oz pullar ma‘lum okruglarda boshqa okruglarga nisbatan turli ayirboshlash qiymatiga ega edi. U bu murakkab tizimni turli inqiloblardan saqlanish uchun joriy qilgan edi. Ma‘lumki, hech bir qo‘zg‘olon moliyalashtirishsiz amalga oshmaydi, bir necha xil pullar muomalada bo‘lgan holda esa katta pul o‘tkazmalarini aniqlashning imkoni bo‘ladi. Qolaversa,

²³ Бармин В.А. СССР и Синьцзян 1918-1941 гг. (Региональный фактор во внешней политике Советского Союза). Барнаул. 1998. –С.88.

qo'zg'olon vaqtida har qaysi okrugda qog'oz pul qadri tushib ketishi va qo'zg'olonchilarni moddiy zaxiralarsiz qoldirishi mumkin bo'lardi.

Aslida Yan Szensin dastlab butun Sharqiy Turkiston uchun yagona pul tizimini joriy qilgan edi, lekin bunda ba'zi firibgarlik usullari qoldirilgan edi. Masalan, qog'oz pullar tilla, kumush va boshqa qimmatbaho buyumlar evaziga tadbqiq qilinar edi, lekin bunda teskari operatsiya o'tkazilmas edi, ya'ni oltin, kumush va boshqa zargarlik buyumi evaziga qog'oz pullarni sotib olish mumkin, lekin qog'oz pulga tilla, kumug sotib olishning imkoni yati yo'q edi. Shu yo'l bilan Yan mahalliy aholi tilla va kumushining 90%ini o'z cho'ntagiga to'pladi, xalqni esa yirtiq qog'ozlar bilan birga qoldirdi.

Ma'lumki, bir okrugda hech qanday qiymatga ega emas edi. Shu bois, masalan, Janubiy Sinszyan savdogarlari shimoldagi savdo-sotiqdan tushgan ("shimoliy") pullarini Urumchidagi hukumat xazinasiga topshirishlari, bu yerdan chek olib, Qoshg'ar yoki Xo'tanda mahalliy ("janubiy") pullarga ayirboshlashga majbur edilar. Bunday pul operatsiyalari dastlab hech qanday pul to'lovlarisiz o'tkazilgan bo'lsa, keyinchalik oradan 5-6 oy o'tgach, xizmat haqi uchun jami topshiriladigan summaning 20%i ushlab qolinadigan bo'ldi. Keyinchalik bu raqamlar oshib bordi. Savdogarlar o'z yo'qotishlarini tovarlarga narxni oshirish yo'li bilan qoplashga urindilar. Albatta, nima bo'lganda ham, bularning barchasidan oddiy xalq eng ko'p jabr ko'rdi.

1912 yilda o'lkada boshlangan vabo epidemiyasi 6-7 yil ichida yuz minglab insonlarning yostig'ini quritdi. Bir xitoylik o'z kundalik qaydnomalarida vabo epidemiyasi episentrida bo'lib qolgan "Xo'tan, Keri va Lop uездlarining o'zida 100 mingga yaqin inson o'lganligini, Lop uездida 30 mingdan ortiq inson o'lgani, Xo'tan atroflarida esa o'lim ko'rsatkichi juda yuqori bo'lgani bois, har o'n oiladan to'qqiztasi butunlay o'lganligi"ni yozib qoldirgan edi²⁴.

XX asrning o'ninchi yillari o'rtalarida butun o'lkani qamrab olgan qurg'oqchilik ham juda katta talafotlarga sabab bo'ldi. Birinchi jahon urushi va uning o'lkaga ta'siri Sharqiy Turkiston iqtisodiyotini izdan chiqarib yubordi. 1914

²⁴ Йин Жйе. "70 йил бурун Шинжонда тарқалган вабо касали"// Шинжон тазкираси. Урумчи, 1996. –Б.38.

yilda urush boshlanishi bilan Sharqiy Turkistonning Rossiya va Angliya bilan olib borgan savdo-iqtisodiy aloqalari barham topdi. Bir tomondan, bu mahalliy aholi ishlab chiqaradigan xom-ashyo mahsulotlarining sotilmay qolib ketishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, keng iste'mol mahsulotlari taqchilligiga olib keldi.

Sharqiy Turkistonning xitoy ma'murlari esa mahalliy aholiga ko'pdan-ko'p davlat va mahalliy soliqlar solish bilan zulm o'tkazishda davom etdi. Bularning barchasi o'lka tub aholisini mutloq qashshoqlanishiga hamda halokat yoqasiga keltirib qo'ydi.

XX asrning birinchi yarmida Sharqiy Turkiston cheklangan tarzda bo'lsa ham, xorijiy mamlakatlar bilan turli savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Bu davrda asosan SSSR, Xitoy, Hindiston va Afg'oniston bilan savdo munosabatlari olib borilgan.

Qoshg'ar bozorida ingliz-hind tovarlarining ko'lami nisbatan cheklangan bo'lgan. Ingliz-hind savdogarlari bu yerda asosan manufaktura, shakar, indigo va boshqa bo'yoqlar hamda choy bilan savdogarlik qilishgan. Angliya manufakturasini mahsulotlari, ya'ni matolari Qoshg'arda juda yuqori narxda sotilsa ham, ancha vaqt, 7 yil davomida hech bir raqobatchiga ega bo'lmay sotilgan. Ingliz matosining narxi 4 dan 6 tangagacha bo'lgan (taxminan 75 rus koleykasi).

Ingliz manufakturasini mahsulotlari, ayniqsa, movut importi hajmi bu matoning juda qimmat bo'lgani bois katta bo'lmagan. 1924 yildan ingliz manufakturasini bu yerda sotila boshlangan sovet matolari tufayli siqib chiqarila boshlaydi. Sovet matolari 1 arshini 3 tanga (taxminan 40 kopeyka)dan sotilar edi. 1924 yildan boshlab hind manufakturasini mahsulotlari Qoshg'ardan tranzit yo'li bilan SSSRga import qilina boshlandi. Shu tariqa, 1924 yilda jami 10 ming kumush, 1925 yilda esa 2 ming qoshg'ar lyani puli qiymatidagi tovar SSSRga import qilingan. Hindistondan Sharqiy Turkistonga olib kelinib sotiladigan shakarining narxi 14 tanga (0,5 kg) edi. 1924 yilda Sovet Ittifoqidan shakar importi yo'lga qo'yilgach, 1925 yildan uning narxi 6 tangaga tushdi²⁵.

²⁵ Басханов М.К. Политика Англии в отношении государства Якуббека. Алма-Ата, 1990. – С. 120.

1922-1924 yillar oralig'ida Sharqiy Turkistonga bo'lgan hind tovarlari importi hajmi qisqardi. Hind tovarlari importining umumiy qiymati: 1922 yilda 2.200 000 rupiya, 1923 yilda 2.400.000 rupiya, 1924 yilda 1.400.000 rupiya bo'lgan²⁶.

Sharqiy Turkiston tovarlarining Hindistonga eksporti hajmi esa bu davrlarda aksincha, oshgan. 1922 yilda 1.900.000 rupiya. 1923 yilda 2.000.000 va 1924 yilda 2.600.000 rupiya qiymatidagi tovarlar Hindistonga eksport qilingan.

Hindistonga eksport hajmining ortishi asosan, sovet diplomatlarining Qoshg'arda sovet bozorini ochishga intilishlari bilan izohlanadi. Hindistonga asosan, shoyi, yombilar, Xitoy kumush tangalari, rus tilla, rubl pullari eksport qilingan. 1923 yilda 408 000 va 1924 yilda 60 000 rupiya qiymatidagi shoyi eksport qilingan bo'lsa, 94 ming va 24 ming rupiya qiymatiga teng yombi va tangalar, 1924 yilda 75 ming rupiyaga teng tilla va 427 ming rupiya qiymatidagi rus tillasi eksport qilingan.

Hindiston bilan bir qatorda Sharqiy Turkiston bu davrda Afg'oniston bilan ham savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Afg'oniston tovarlari importining umumiy hajmi: 1922 yilda 905 ming, 1923 yilda 811 ming, 1924 yilda 393 ming rupiyani tashkil qilgan. Bu davr mobaynida Afg'onistonga eksport hajmi ham kamayib ketdi: 1922 yilda 639 ming, 1923 yilda 217 ming va 1924 yilda 300 ming rupiyalik tovarlar Afg'onistonga eksport qilingan. Afg'onistonga asosan, shoyi, shoyi matolar va mahalliy paxta mato va kiyimlar eksport qilinardi. Eksportning qisqarishiga Afg'onistonning sovet Turkistoni bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yishi sabab bo'lgan edi. Uning oqibatida Afg'onistonda Sharqiy Turkiston tovarlariga bo'lgan talab tushib ketgan edi.

Afg'oniston bilan tovarlarning umumiy tovarayirboshlashning umumiy summasidan Sharqiy Turkistonda Afg'onistonga eksport qilishga qaraganda import hajmining yuqori bo'lganligini bilish mumkin.

Afg'on ichki savdosi to'laligicha afg'on ma'murlari qo'lida bo'lib, Xitoy fuqarolari Afg'onistonda savdo qilish imkoniyatiga ega emas edilar²⁷.

²⁶ Skine C.P. Chinese Central Asia. Boston: Houghton, Mufflin. 1926. – P.108.

²⁷ Noris M.R. Gateway to Asia: Sinkiang. Frontier of the Chinese Far West. New York: The John Day Company. 1944. – p. 146.

1927 yilda Sharqiy Turkiston tashqi savdosidagi import va eksport hajmi ko'rsatkichi sovet rublida quyidagicha bo'lgan:

Davlat	Import	Eksport
SSSR	13 mln. 528 ming	10 mln. 647 ming
Hindiston	1 mln. 187 ming	2 mln. 815 ming
Afg'oniston	831 ming	548 ming
Xitoy	1 mln. 930 ming	73 ming

Sharqiy Turkistondagi xalqaro savdo holatini bu yerni 1927 yilda amerikalik olim Ouen Lettimor Hindistonga ketayotib, kesib o'tayotgan paytda shunda yta'riflangan: "Ko'pgina xorij firmalari o'z foydalaridan ayrildilar va o'lkani tark etib bo'ldilar. Ayni damda viloyatda, sovet savdosini inobatga olmaganda, xorijliklardan bitta nemis firmasi va amerikaniki deb ro'yxatga olingan bir nechta kichik firmalar faoliyat ko'rsatmoqda. Germaniya firmasining rivoji Rossiya bilan pochta aloqasi to'g'risidagi kelishuvga bog'liq. Bu firma "oddiy pochta" orqali turli xil arzon buyumlar qabul qilib olib, so'ng uni kichik shaharlarda sotish bilan shug'ullanadi. Bu savdodan tushgan daromadga xom-ashyo mahsulotlari sotib olinib, Sibirga jo'natiladi. Dastlab firma Tyanszindan tuzilgan edi, lekin yangi shart-sharoitlarga moslashib olgandan so'ng, hozirda bimalol erkin faoliyat yuritmoqda. Bu firmada yoshlari 50ni qoralab qolgan nemis, ingliz va bir nechta rus millatiga mansub kishilar faoliyat yurgizadi"²⁸.

1930-yillarning boshlarida musulmon uyg'ur va dung'on xalqlarining xitoy mustamlakachilik zulmiga qarshi olib borgan milliy-ozodlik kurashi natijasida Sharqiy Turkistonda yuzaga kelgan murakkab harbiy-siyosiy vaziyat bu o'lkada ingliz-hind savdosi rivojini ta'minlay olmadi. Briitaniya savdosi oldida yuzaga kelgan yana bir jiddiy muammo bu Sovet Ittifoqining Sharqiy Turkistondagi iqtisodiy ustunligi va o'lka sovetparast siyosati edi. Diktator Shen Shisay davrida

²⁸ Lattimore O. High Tartary. Boston: Little Brown and Company. 1930. –p. 76.

Sovet Ittifoqining Sharqiy Turkistondagi ta'siri shunchalik kuchayib ketadiki, natijada u deyarli Sovet Ittifoqining yarim mustamlakasiga aylanib qolgan edi. Shen Shisay hukumati e'lon qilgan antiimperialistik shiorlar amalda xorijliklarga qarshi (sovet fuqarolaridan tashqari) qaratilgan xatti-harakatlardan iborat edi. Bu davrda hind savdogarlariga qarshi turli xil byurokratik yo'llar bilan choralar qo'llanildi. Jumladan, ularning karvonlarining Hindistondan jo'nab ketish haqidagi ruxsatnomalari uzoq vaqt tekshirilardi vaholanki, sovet savdo karvonlari esa chegarani bemalol kechib o'tar edi. Shu bilan birga britan tovarlari uchun bojxona solig'i oshirilib borildi. Masalan, Hindiston savdo karvonlari to Qoshg'ar shag'riga kirib borgunicha, yo'lda uch marta bojxona soliqlarini to'lashga majbur qilinardi. O.Lattimore ma'lumotlariga ko'ra, 1930 yillarning boshlaridagi Hindiston bilan savdo o'lka tashqi savdosining 5%ini tashkil qilar edi. Hind savdogarlari o'lkaning janubi-g'arbiy vohalarida joylashib olib, o'z daromadlarini turli boshqa ishlarga sarmoya sifatida kiritar edilar. Bu esa, o'z navbatida, turli tekshiruv va taftish qilish ishlariga olib kelar edi²⁹.

Britan hukumati Sharqiy Turkistondagi xitoy hukumati bilan savdo aloqalarini yaxshilashga bir necha bor urundi. 1935 yil kuzida Urumchiga ingliz missiyasi yuboriladi. Bu missiya o'lkadagi britan savdosini diskriminatsiya qilinishiga yakun yasashi kerak edi. Missiyaga Pekindagi Britan Legionida maslahatchi bo'lib ishlaydigan Ser Erik Tigman rahbarlik qiladi.u sentyabr oyida Urumchiga yetib keladi. Britan vakili va Koshg'ardagi britan bosh konsuli Glover ikkovi Shen Shisay tomonidan yaxshi kutib olinadilar. E.Tigman Koshg'arga safar qiladi va so'ngra u yerdan Hindistonga o'tib ketadi³⁰.

Ammo britaniyaliklarga berilgan va'dalarning birontasi bajarilmadi. Sharqiy Turkistondagi britan savdosiga qo'llanilayotgan diskriminasion choralar nafaqat saqlanib qoldi, balki kuchaydi ham. Tez orada bu o'lkadagi britan va afg'on savdosiga nuqta qo'yildi. 1939 yilning mart oyida viloyat mustamlakachi hukumati

²⁹ Lattimore O. Pivot of Asia. Sinkiang and Inner Asian Frontiers of China and Russia. Boston: Little, Brown and Company. 1950. –p.173.

³⁰ Fleming P. News from Tartary. A journey from Peking to Kashgar. New York/ 1936. –p. 256.

janubidagi barcha xorijliklar o'z tovarlarini topshirish va mamlakatni tark qilishini talab qilingan qaror chiqardi. Britan konsuli norozilik bildirganda, konsullik baykot qilinadi hamda bu konsullikda ishlaydigan xitoyliklarga nisbatan mahalliy bozorda hujum uyushtiriladi.

Koshg'ardagi bosh konsul X.X. Tomsonning yuzaga kelgan muammoni xitoy amaldorlari bilan hal qilishga urinishi hech qanday samara bermaydi. Angliya Hindistoni bilan bo'lgan savdo munosabatlariga barham berildi.

“Antiimperialistik” kompaniya jarayonidan mamlakatdan, shuningdek, asosiy ko'pchilik qismini sivedlar tashkil etgan xristian missionerlari ham haydaladi.

Sharqiy Turkistonda sodir bo'lgan bunday iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bu o'lkada endilikda Sovet Ittifoqining ta'siri oshib borayotganidan darak beradi.

Angliyalik yozuvchi Ser Erik Taykman o'zining “Turkistonga sayohat” nomli kitobida Sharqiy Turkistonda Xitoy hokimiyatining mavjud bo'lishi Angliya manfaatlariga mos kelishini shunday ifodalan edi: “...Bizning fikrimizcha, bu o'lka Xitoyning hokimiyati ostida bo'lishi Buyuk Britani manfaatlaridandir. Aks holda bu o'lkada boshqa davlatlar, masalan, Rossiya yoki Yaponiya hukmronlik qilishiga yo'l ochilgan bo'lar edi”³¹.

³¹ E.Tikeman. Journey to Turkestan. London, 1945. –p.111

II.2 Uyg'ur xalqining Xitoy xalq Respublikasi tashkil topgandan keyingi davridagi ijtimoiy-siyosiy axvoli.

XIX asrda Chin imperiyasi zulmiga qarshi bo'lib o'tgan milliy-ozodlik kurashlari XX asrda ham bir zum to'xtagani yo'q.

XX asrning boshlaridanoq butun Sharqiy Turkiston bo'ylab qo'zg'olonlar keng quloch yoydi. Qog'arlar, Yorkend va Xo'tan shaharlarida uyg'urlar Xitoy mustamlakachi ma'murlariga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar.

1912-1913 yillarda Qumulda bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar, ayniqsa, shiddatli tus oldi. Qo'zg'olonga Temur Xalfa boshchilik qiladi. Ammo qo'zg'olon tez orada bostiriladi. Temur Xalfa va qumulliklarga qo'shilish maqsadida bo'lgan Turfon shahri aholisi ko'targan qo'zg'olonga boshchilik qilgan Muhitdinlar qatl ettiriladilar³².

1931 yildan uyg'urlarning keng ko'lamli, yirik milliy-ozodlik kurashlari boshlanadi. O'lka sharqiy qismidagi Kumul shahrida ham yirik qo'zg'olonlar bo'lib o'tadi. 1930 yilda sharqiy Sinszyandagi Kumul xoni Shox Maxsut o'lgandan keyin qaltis vaziyat o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Siyosatda xon hudud ustidan o'ziga meros bo'lib qolgan boshqaruvni feodalizm prinsiplari bilan davom ettirdi. Sharqiy Xitoy va boshqa boy o'zlashtirilmagan yerlarni bog'lovchi asosiy yo'lni ikkiga ajratib turadigan joyda joylashgan bu viloyatning ahamiyati kuchlarni birlashtirib va eski tuzumni bartaraf qilib hukumatga erishih orzusi bilan birgalikda Jinni xonlikni bekor qilishga va Shox Maxsut o'limiga buuruq berishga olib bordi. Jin shuren Uyg'ur xalqi ustidan soliqlarni oshirishda davom ettirdi, sara boy yerlarni musodara qildi va bu yerlarni Gansu provinsiyasidan qochib kelgan Xanshuy qochoqlariga bo'lib berdi, uyg'ur xalqini esa xosildor bo'lmagan yerlarga va cho'llarga ko'chiradi. 1931 yildan butun hudud bo'ylab kuchsiz qo'zg'olonlar, xalq olomonlari va qarshilik harakatlari paydo bo'layotgandi va Hamida joylashgan yangi garnizon juda katta qarshilik ko'rsatdi. Oxirgi tartibsizlik 1931 yil fevralda tub xitoylik ofitser Cheng Hami tashqarisidagi qishloqda yashovchi uygur qiziga uylanmoqchi bo'lganda bo'ldi. Lekin islom qoidalari musulmon qizni

³² Васильев Л.С. История Востока. Т-2. –М., 2001. –С.320

musulmon bo'lmagan erkakka nikohlanishini taqiqlardi va bu uyg'ur jamiyati uchun haqorat edi. Qo'zg'olon 1931 yil 20 fevralda nikoh marosimida Cheng va uning 33 askarini yo'q qilinishi bilan boshlandi. 120 ta Xanshuy qochoqlari ham o'ldirildi. Bu qo'zg'olon faqatgina uygur xalqiga tegishli emasdi: bir birlari bilan bir bir urushib yurgan bo'salar ham qozoqlar, qirg'iz, xanshuylar va xuilar ham bu qo'zg'olonga qo'shildi. Qo'zg'olonga Xoja Niyoz Xoji va Yo'lbars Xonlar rahbarlik qiladilar. Qumuldagi qo'zg'olon zanjirli reaksiya sifatida o'lkaning boshqa shaharlariga ham tarqaladi³³.

Turfon shahridagi qo'zg'olonga taniqli uyg'ur jamoat arbobi, savdogar Maqsud Oxun Muxitov va uning ikki ukasi rahbarlik qiladi. Uyg'urlarga Sharifxon boshchiligidagi Oltoy okrugi shimolida yashaydigan qozoqlar, janubda yosh knyaz Maxavan boshliq Qorashahar mo'ng'ullari, hamda dung'onlar va qirg'izlar ham qo'shiladilar. Qo'zg'olonlar keskin tus oladi. Xitoy zulmiga bo'lgan umumiy nafrat bu xalqlarni jipslashtirib, yakdil harakat qilishlarini ita'minladi. Oqibatda, 1933 yilning bahoriga kelib, qo'zg'olonchilar Sharqiy Turkistonning 90%ini nazorat ostilariga olishga muvaffaq bo'ldilar³⁴.

1933 yilning aprel oyida harbiy to'ntarish natijasida Sharqiy Turkistonda hokimiyat tepasiga polkovnik Shen Shisay keldi. U o'ziga general unvonini beradi va o'lka gubernatori bo'lib oladi. U o'lka xalqlari olib borayotgan milliy-ozodlik kurashi shiddatini pasaytirish maqsadida o'lka xalqlariga bir qancha siyosiy va iqtisodiy erkinliklar va'da qilingan dasturini e'lon qildi³⁵.

1933 yilning yozida Xoja Niyoz Xoji va Shen Shinsay bu dasturning qabul qilinishi borasida bir to'xtamga keldilar. Bunda uyg'ur rahbarlariga katta bosim o'tkazgan Sovet Ittifoqining "roli" ham katta bo'ldi.

Shunday bo'lsa-da, ozodlik kurashining bu tariqa yakun topishiga Xo'jan va Koshg'ardagi qo'zg'olonchilar norozilik bildirdilar va kurashni davom ettirishdi³⁶.

1933 yil yozida Sobit Domulla va Muhammad Imin Bug'ro mustaqil Sharqiy Turkiston Islom Respublikasi tuzilganligini e'lon qildilar. Shunisi diqqatga

³³ Сыроежкин К. Проблемы национальных меньшинств Китая. / док.дисс. Алма-Ата. 1995. –С.95.

³⁴ Васильев Л.С. Ўша асар, –Б.350.

³⁵ Русско-китайские отношения в XX в. Т-4. Мас мух Тихвинский С.Л.. –М., 2000. –С. 225.

³⁶ Ленинская политика СССР в отношении Китая (1917-1967). –М., 1968. –С.50.

sazovorki, dastlab davlatni Uygʻuriston Islom Respublikasi deb nomlash koʻzda tutilgan edi, ammo bu yerda yashab kelayotgan qozoq, qirgʻiz, oʻzbek, tatar kabi millatlar manfaatlari ham inobatga olinib, davlatning nomini oʻzgartirishga qaror qilinadi.

1933 yil 12 noyabrda Koshgʻar shahrida respublika Dasturi, Deklaratsiya va Konstitutsiyasi rasmiy tarzda eʼlon qilinadi. Xoja Niyoz Xoi mamlakat Prezidenti, Sobit Domulla esa Bosh vazir deb eʼlon qilinadilar. Bu barcha uygʻur rahbarlarining birdam va yakdilligini koʻrsatish va Uygʻuriston yerlarining yagonaligini ifodalash maqsadida qoʻyilgan qadam edi. Xuddi shu oyda rasman mustaqil Sharqiy Turkiston Islom Respublikasi tashkil topganligi eʼlon qilindi. Milliy Assambleya chaqirilib, Konstitutsiya qabul qilindi. Davlat milliy ramzi – och koʻk rangli fonda oq rangdagi yarim oy va yulduz-koʻrinishidagi bayroq va milliy valyuta qabul qilindi³⁷.

1933 yil oktyabrda Shen Shisay iqtisodiy va harbiy masalalarni yechish uchun Moskvaga safar qildi. 1934 yil dekabrda ikkinchi safari davomida unga sovet bosh konsuli Apresov hamroxlik qildi. 1934 yil yanvar oyida Shen Shisay Apresov bilan muzokaralar olib borib, bevosita sovet harbiy yordamini olishga muvaffaq boʻldi. Sharqiy Turkistonda Yaponiya taʼsirining kuchayishini hamda shundoqqina biqinida musulmon davlati paydo boʻlishini istamagan Sovet Ittifoqi Shen Shisayga yordam sifatida Qizil armiya qoʻshinlaridan tarkib topgan “Oltoy koʻngilli armiyasi” deb nomlanadi gan qoʻshinni oʻlkaga joʻnatadi. Bu qoʻshin OGPUning 13-Olma-Ota polki askarlari edi. Shen Shisay topshirigʻiga koʻra, polkovnik baron Pavel Pappengut bitta otliq va ikkita piyoda polkidan iborat qoʻshin tuzadi. Kechgina bir-biriga dushman boʻlganlar bugun bir safda turib jang qilar edi. OGPU agentlari Sharqiy Turkistonda josuslik ishlarini olib borar edi. Keyinchalik NKID narkomi, davlat xavfsizlik xizmati generali Vladimir Dekanozov bu oʻlkani nazorat qiladi.

Bu vaqtda dungʻonlar Ma Juin boshchiligida Koshgʻar shahrini egallaydilar. Bir kunning oʻzida uning odamlari mahalliy aholidan 2 ming nafarini qirgʻin

³⁷ Синьцзян –уйгурский автономный район Китая. –С.200.

qilishdi, keyinchalik bir yarim mingta asirga olingan xitoy askralari ham otib tashlanadi. Urumchini egallash jarayonida sovet aviatsiyasi bombardirovkasi natijasida Ma Juin qo'shini tarqatilib yuboriladi. 1935 yilga kelibgina uning isyoni batamom bostirildi.

Sharqiy Turkiston Islom Respublikasi shu tariqa yo'q qilinadi. Bosh vazir Sobit Domulla va boshqa bir nechta vazirlar hibsga olinib, Urumchiga olib kelinib qatl etildilar. Boshqa rahbarlar, masalan, Muhammad Imin Bug'ro va Mahmud Muhitiylar Hindistonga muxojirlikka ketishga majbur bo'ldilar. Koshg'ar Xoja Niyoz Xoji otryadlari tomonidan egallanadi, lekin endi Islom Respublikasini qayta tiklash haqida so'z ketmas edi. Oltoy ko'ngilli armiyasining bir qismi Sovet Ittifoqiga qaytib ketadi, bir qismi instruktor sifatida qoladi. Xoja Niyoz gubernator o'rinbosari etib tayinlanadi, lekin keyinchalik u ham qatag'on qilinadi.

1937 yilda milliy-ozodlik harakatlari yangicha tus oldi. Qoshg'ar shahrini ozod qilgan qo'zg'olonchilar Urumchi tomon harakat qildilar. Hal qiluvchi janglar Qorla va Qorashahar shaharlarida bo'lib o'tadi. Xitoy-sovet birlashgan qo'shinlari qo'zg'olonn bostirishga erishdi. Shundan so'ng butun Sharqiy Turkiston bo'ylab ommaviy qatag'onlar bo'lib o'tadi. Ammo mahalliy aholi ozodlik uchun kurashni to'xtatgani yo'q. Uyg'urlar, qozoqlar va Ili o'lkasi mo'ng'ullari ayniqsa, jiddiy qarshilik ko'rsatdilar.

Norin va O'sh sovet harbiy qismlari hamda Shen Shisay armiyasi qo'shma harbiy amaliyotlari natijasida bu qarshilik harakatlari ham bostirildi³⁸.

Brigada komandiri Nikolay Noreyko hisobotidan: "5 dekabrga kelib, 36-dung'on diviziyasidan o'ldirilgan va asirga olinganlar soni -5612 kishi, asirga olinib so'ngra o'ldirilganlar -1.887 ta, 20 ta qurol, 1 ta minomyot, 7 migdan ortiq vintovka qo'lga olindi..."³⁹.

Sinszyan, ya'ni Sharqiy Turkiston viloyati Chan Kayshi boshliq Xitoy markaziy hokimiyatiga nomigagina bo'ysunardi. Uning o'z valyutasi mavjud bo'lib, qizig'i uning barqarorligi SSSR Davlat Banki tomonidan ta'minlanar edi.

³⁸ Ефимов Г. Ўша асар, –Б.100.

³⁹ Чудодеев Ю.В. Советские военные советники в Китае (1937-1942). –М., 1988. –С.60.

Oq gvardiyaliklarga to'xtaladigan bo'lsak, ularning bir qismi janglarda haloq bo'ldi, bir qismi Shen Shisay xizmatiga o'tib ketdi. Keyinchalik, ulardan shakllantirilgan rus diviziyasi, Sovet Ittifoqining qarshiligiga qaramay, tarqatib yuborildi. Pappengum fitnada aylanib, otishga hukm qilindi. U bilan birga yana 40 ofiser ham qatl etildi.

Shen Shisay Moskvaga safari chog'ida, VKP (b) safiga yozilish istagini bildirdi. 1938 yilda RKKK Razvedka xizmati boshlig'i o'rinbosari tomonidan unga №1859118 raqamli partiya bileti topshirildi⁴⁰.

Shen Shisayning sodiqligi Moskva tarafidan yuqori baholanar edi. Uning qurol-yarog', oziq-ovqat to'g'risidagi iltimoslari to'raligicha qondirilardi. Hatto, Hami shahrida I-16 qiruvchi samolyotlari yig'iladigan aviatsiya zavodi qurilgan edi. To'g'risi, keyinchalik bu zavod yana qayta olib chiqib ketiladi. Sovet Ittifoqi hukumatining Shen Shisayni qo'llab-quvvatlashi ostida albatta strategik manfaatlar yotar edi. Bu paytga kelib, Sharqiy Turkiston hududida uran, volfram, surma, qo'rg'oshin, nikel, tantal va boshqa qimmatbaho ma'danlarining katta zahiralari aniqlangan edi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangach, xitoylik general Shen Shisayning siyosiy qarashlari o'zgarib qoldi. U xitoylik millatchilar, ya'ni Gomindan partiyasi tarafdorlari tomoniga o'tib oladi va shu bilan SSSRning noroziligiga sababchi bo'ldi. Shundan so'ng Sovet Ittifoqi Sharqiy Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik harakatlarini qo'llab-quvvatlay boshladi.

1941 yilda qozoqlar bosh ko'tardilar. Qo'zg'olonga Shen Shisay hukumatining yaylov va suv o'rinlarini o'troq dehqonlarga –dung'on va xitoyliklarga olib berishi sabab bo'lgan edi. Qo'zg'olonchilarga qarshi artilleriya, tank va aviatsiya ishga tushurildi. Qo'zg'olon rahbarlari orasida xiyonat sodir bo'lgach, qo'zg'olonga Ospan Islom o'g'li, u qo'zg'olonchilarning eng katta guruhlaridan biriga rahbarlik qiladi, hamda Qalibek Rahimbek o'g'li rahbarlik qildilar⁴¹.

⁴⁰ Астафьев Г.В. Итернациональная помощь СССР Китаю (1917-1945). Г.Астафьев// Вопросы истории. №9. – М., 1984. –С.30.

⁴¹ Ледовский А.М. СССР и Китай в 1937-1945 гг. / Записки советского дипломата. –М., 1990. –С.99.

Shen Shisay o'z xatosini tuzatishga intilib, Stalinga pushaymonligi to'g'risida xat yozadi. Bu xatda u Sharqiy Turkistonni 18-respublika sifatida (17-norasmiy respublika deb Mo'g'uliston hisoblanadi) Sovet Ittifoqi tarkibiga qo'shib olishni taklif etgan edi. Ammo u rad javobini oldi. Shen Shisay o'rniga RKKA Akademiyasini tamomlagan uning ukasi Shen Shiin keldi. 1942 yilda u noma'lum tarzda o'ldiriladi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, u o'zining rus xotini tomonidan pichoqlab o'ldirilgan edi. Bu xotinni keyinchalik o'z navbatida bo'g'ib o'ldirilgan holda topishadi. Keyinchalik bu ayol Urumchi shahridagi SSSR bosh konsuli va sovet harbiy maslahatchisi boshchilik qilgan bir guruh fitnachilardan shunday buyruq olganligi ma'lum bo'ldi⁴². Ospan Islom o'g'li qo'zg'olonini OLtoy, Tarbag'atoy va Ili okrugida yashaydigan qozoqlar ham qo'llab-quvvatladilar. Urumchidagi sovet konsuli Dekanozovga quyidagilarni yozadi: "Ospan boshchilik qilayotgan qozoqlar guruhi OLtoyda yangi qozoqlar isyonini tayyorlash uchun yaxshigina rol o'ynashi mumkin". Keyinroq Stalin Ospan botirni "sotsial jinoyatchi" deb yomonlagan ham edi. Xitoydagi markaziy hokimiyat tashqi siyosatidagi o'zgarishlar natijasida Moskva uyg'ur va qozoqlarning milliy-ozodlik harakatlarini o'z manfaatlari tomon burishga harakat qildi.

Ospan Islom o'g'li boshchiligidagi qo'zg'olonchilarni mo'g'ullar qurol-yarog' bilan ta'minlab turdi. Mo'g'uliston rahbarlaridan Suke batorning o'g'li Damdin qurol-yarog'lardan bir partiyasini shaxsan o'zi ta'minlab turgan.

1944 yil bahorida hukumat rahbarlarining Sharqiy Turkistonning janubiy hududlariga borib joylashishi haqidagi talabiga bo'ysunmay, Ospan bir necha ming qabiladoshlari bilan Mo'g'ulistonga o'tib ketdi. Bu ko'chish xavfsizligini havodan sovet aviatsiyasi ta'minlab turdi.

1943 yil yozi Sharqiy Turkistonda antisovet kayfiyati kuchayishi bilan xarakterlanadi. Bu yerga Gomindan harbiy qismlarini joylashtirish boshlandi. Urushning oxirlariga kelib, ularning soni 100 ming kishini tashkil etdi. Bu harbiy qismlar asosan xitoylik va dung'onlardan tuzilgan edi.

⁴² Чудодеев Ю.В. Ўша асар. –Б. 70.

1943 yilda sovet razvedkasi yordamida Sharqiy Turkistonni ozod qilish tashkiloti “Ozodlik Tashkiloti” tuzildi. 1944 yil 8 noyabrda G‘ulja shahridagi yashirrin harbiy-inqilobiy qo‘mita qurolli qo‘zg‘olon boshlash haqida e‘lon qildi. 1944 yil dekabrda Beriyaning buyrug‘i bilan SSSR NKVD qoshida maxsus xizmat bo‘limi tashkil etiladi. Bu bo‘lim Sharqiy Turkiston musulmon xalqlarining milliy-ozodlik kurashlariga rahbarlik qilishi va yordam berishi lozim edi. Mahalliy aholidan Medeu rayonida maxsus tayyorgarlik ko‘rgan guruh shakllantirildi. So‘ngra bu guruh Sharqiy Turkistonga tashlanib, partizan otryadlari tuzishga kirishadi. Bunday maxsus guruh komandirlaridan biri Jarkent shahridan tatar Fotih Muslimov edi. Keyinchalik u Sharqiy Turkiston respublikasi harbiy tizimida katta lavozimlardan birini egalladi.

Atigi bir necha kun ichida Ili o‘lkasining barcha strategik muhim punktlari gomindanliklardan ozod qilindi. Xitoy garnizonlari yo‘q qilindi. Urumchidan yordamga kelgan xitoy qo‘shini mag‘lubiyatga uchraydi. Barcha xitoy bo‘lmagan millat vakillari bu safar ham birlashib harakat qildilar⁴³.

1944 yil 12 noyabr oyida G‘ulja shahrida tantanali ravishda Sharqiy Turkiston Respublikasi tuzilganligi e‘lon qilindi. U Sharqiy Turkistonning uchta okrugi-Ili, Tarbag‘atoy va Oltoy okruglari hududida tashkil topdi. Respublika PRezidenti etib millati o‘zbek marshal Alixon To‘ra Sog‘uniy e‘lon qilindi. Uyg‘ur aslzodalaridan biri Hakimbek Xoja uning birinchi o‘rinbosari, qozoqlardan bo‘lgan Abulxayr To‘ra ikkinchi o‘rinbosari lavozimlariga tayinlandilar⁴⁴.

1945 yil aprel oyida Sharqiy Turkiston Milliy armiyasi tuzildi. Sovet general-mayori Ivan Polinov bosh qo‘mondon bo‘lib oladi. U esa o‘z navbatida, NKVD general-mayori Vladimir Yegnarov ko‘rsatmalarini bajarardi. Shtab qo‘mondoni etib general Varsonofiy Mojarov tayinlandi. Uyg‘ur Zunnun TOipov armiya qo‘mondoni o‘rinbosari lavozimiga tayinlandi. Diviziyalarga qozoq Dalelxon Sugurbaev, rus Pyotr Aleksandrov va qirg‘iz Ishoqbek Monuevlar rahbarlik qilishdi. Ospan Islom o‘g‘li Oltoy okrugiga gubernator etib tayinlangan edi, lekin u

⁴³ Ледовский А.М. Ўша асар. –Б.120.

⁴⁴ Фу Чжен Кун. Синьцзян-уйгурский вопрос и его развитие. Алма-Ата, 2001. –С.30.

va hukumat o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelgach, hukumat buyruqlarini bajarishdan bosh torta boshladi.

Shu tariqa Sharqiy Turkiston hududida ikkinchi bor mustaqil davlat tashkil topdi. Bu kabi voqealar Sharqiy Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik uchun bo'lgan kurashlari bir zum bo'lsa ham to'xtamaganligidan darak beradi.

Uyg'ur xalqining o'z milliy-mustaqil davlatiga ega bo'lishga intilishi va xitoy mustamlakachi qo'shinlariga qarshi olib borgan milliy-ozodlik kurashlari tahsinga loyiq.

Sharqiy Turkiston Respublikasi bir qancha harbiy muvaffaqiyatlarga erishib, o'lkaning boshqa viloyatlarini ham ozod qilishga tayyor bo'lgan bo'lsa-da, uning taqdiri hal bo'lgan edi. Gap shundaki, 1945 yil avgust oyida V.M. Molotov va Xitoy respublikasi tashqi ishlar vaziri Van Shisze tomonidan imzolangan Sovet Ittifoqi va Xitoy o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi bitim ilovasining 3-punktida Sharqiy Turkiston haqida so'z borardi. Unda "Sinszyanning bundan keyingi taqdiriga to'xtaladigan bo'linsa, Sovet hukumati shuni ma'lum qiladiki, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi bitimning 5-moddasiga muvofiq, u Xitoyning ichki ishlariga aralashmaydi" kabi jumlar bitilgan edi.

Albatta, bunday maxfiy ilova haqida uyg'ur rahbarlari hech bir ma'lumotga ega emas edilar. Shu tufayli ular Moskvaning bosimi ostida Gomindan vakillari bilan muzokara stoli atrofiga o'tirishga majbur bo'ldilar. Respublika Prezidenti Alixon To'ra Sovet Ittifoqiga olib chiqib ketilgani tufayli, delegatsiyaga taniqli uyg'ur jamoat arbobi Ahmadjon Qosimiy rahbarlik qildi⁴⁵.

Bu muzokaralar bilan bir vaqtda Gomindan va Xitoy Kompartiyasi o'rtasida Sharqiy Turkistonda o't ochishni to'xtatish borasida muzokaralar bo'lib o'tadi. Bu muzokaralarda Chan Kayshi hukumatidan vakil sifatida general Chjon Chjichjun, Sharqiy Turkiston Respublikasi nomidan esa Bosh vazir Ahmadjon Qosimiylar ishtirok etadi. Muzokaralar qiyinchilik bilan uzoq davom etadi.

1946 yil yozida "11 moddalik kelishuv" kuchga kirdi. Chjon Chjigjun boshchiligida koalision hukumat shakllantirildi. Ahmadjon Qosimiy uning birinchi

⁴⁵ История внешней политики СССР. Т-1./Мас.мух А.А.Громико. –М., 1986. –С.300.

o‘rinbosari bo‘ldi. Ammo bir yilga ham bormay, bu hukumat tarqalib ketdi⁴⁶. Xitoy kompartiyasi Gomindan ustidan hal qiluvchi g‘alabaga erishgach, 1949 yil avgust oyi o‘rtalarida Ahmadjon Qosimiy Xitoy xalq siyosiy maslahat kengashi yig‘ilishida ishtirok etish uchun Sharqiy Turkiston Respublikasi delegatsiyasiga boshchilik qilib, Pekinga uchib ketadi. U G‘ulja-Olma-ota-Irkutsk yo‘nalishi bo‘yicha uchishni ma‘qul ko‘rdi. Bunday martshrutning tanlanishi Ahmadjon Qosimiy sovet rahbariyati vakillari bilan uchrashib, Moskvani Sharqiy Turkiston Respublikasi mustaqilligini saqlab qolishga ko‘ndirishga urinishi bilan izohlanadi⁴⁷.

Oradan bir necha kun o‘tgach, bortida Sharqiy Turkiston Respublikasi hukumati bo‘lgan Il-12 rusumli samolyotning halokatga uchragani to‘g‘risida xabar tarqaldi. Hanuzgacha samolyot halokatga uchragan aniq joyi haqida aniq ma‘lumotlar mavjud emas. Ba‘zi ma‘lumotlarda aviahalokat Irkutsk yaqinida sodir bo‘lganligi qayd etilsa, boshqa manbalarda Chita shahri yaqinida bo‘lgan deb yozib qoldirilgan⁴⁸.

Shuningdek yana Sharqiy Turkiston Respublikasi delegatsiyasi sovet davlat xavfsizligi organlari tomonidan hibsga olinib, otib tashlanganligi, aviahalokat esa uyushtirilgan degan fikr ham mavjud. Halok bo‘lganlarning jasadlari o‘z yaqinlariga topshirildi. Ularni G‘ulja shahar bog‘iga dafn etishadi. Oradan 12 yil o‘tgach, Dalelxon Sug‘urboyevning jasadi Olma-Otaga olib kelinib qayta dafn etildi.

Muhammad Imin Bug‘ro va Aysa Yusuf Alptekin Turkiyagaga, Masud Sabri Boyqo‘zi esa Eronga muxojirlikka ketishga majbur bo‘ldilar. 1949 yilda Urumchida hukumat tepasiga Xitoy kommunistlariga moyil bo‘lgan tatar bolshevigi Burhon Shahidiy keldi.

Xitoy kompartiyasi MQ siyosiy byurosi Sharqiy Turkistonda 250 ming kishilik harbiy qismlarni joylashtirish va bu yerga ommaviy ravishda kelgindi xitoyliklarni ko‘chirish haqida qaror qabul qildi.

⁴⁶ Капица М.С. КНР: три десятилетия-три политики. –М., 1979. –С.80.

⁴⁷ Фу Чжен Кун, Ўша асар. –Б.90.

⁴⁸ Гуревич Б.П., Моисеев В.А. сост. Международные отношения в Центральной Азии. Т-2. –М., 1989. –С.70.

1955 yil oxirida Sinszyan Uygʻur Avtonom rayonini tuzish haqida rasman eʻlon qilindi⁴⁹.

Sharqiy Turkistonda Xitoy hokimiyatining uzil-kesil oʻrnatilishi uygʻur xalqi uchun ogʻir oqibatlarga olib keldi. Xitoy kommunist hukumati bu yerga millionlab xitoylikni koʻchirib olib keldi. Bunday yoʻl bilan uygʻur xalqining milliy-ozodlik kurashini sindirmoqchi boʻldi.

Sharqiy Turkiston hududida, aniqrogʻi LObnor koʻli rayonida xitoy hukumati yadroviy poligon joylashtirdi. 1964 yildan bu poligonda 41 dan ortiq yadro sinovlari oʻtkazildi. Bu sinovlar oqibatlari nafaqat mintaqa aholisi uchun, balki butun Osiyo uchun zararli hisoblanadi. Ayni damda yadroviy sinovlar va tabiiy resurslarni ayovsiz ekspluatatsiya qilish natijasida mintaqa jiddiy ekologik halokat yoqasiga kelib qolgan. Sharqiy Turkiston xalqlarining genofondi xavf ostida qolayotir.

1949 yilda uygʻurlar aholining 96% qismini tashkil qilardi, bugungi kunga kelib bu raqam 50%ni tashkil etmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan beri Xitoy hukumati bu oʻlkaga uzluksiz ravishda xitoyliklarni koʻchirib olib kelib joylashtirmoqda.

Sovet Ittifoqi parchalanib, Oʻrta Osiyoda mustaqil respublikalarning tashkil topishi uygʻur xalqining mustaqillik uchu4n boʻlgan kurashiga yangi turtki berdi. Uygʻur xalqi bugungi kunda hanuz oʻz davlatiga ega boʻlmagan yagona yirik turkiy xalq hisoblanadi.

1992 yildan etnik ayirmachilik harakatlari boshlandi. Bu harakatlar 1997 yil Gʻulja voqealariga qadar davom etdi. Shundan soʻng faollik bir qadar pasaydi. Ammo baʼzi uygʻur tashkilotlari va Xitoy hukumati oʻrtasida kurashlar davom etdi.

Baʼzi maʼlumotlarga koʻra, 1992-1997 yillar davomida Sharqiy Turkistonda Xitoy hokimiyatiga qarshi sifatida 700 dan ortiq qurolli harakatlar, portlashar sodir boʻldi. Faqatgina 1996 yil aprel oyining oʻzidan boshlab, 65 mingdan ortiq kishi

⁴⁹ Сладковский М.И. Китай: основные проблемы истории, экономики, идеологии. –М., 1978. –С.202.

aksil-xitoy namoyishlarida qatnashdi, 17 bor hukumat qo'shinlari bilan qurolli to'qnashuvlar sodir bo'ldi⁵⁰.

1996-1999 yillar orasidagi kurashlarda mingdan ortiq kishi halok bo'ldi.

Hozirgi kunda terrorizmga qarshi xalqaro miqyosda kurash ketayotgan bir vaqtda ba'zi siyosatshunoslar Sharqiy Turkistonda uyg'urlarning mustaqillik uchun siyosiy kurash kechmayapti, balki oddiy terroristik xurujlar bo'lib, Xitoy hukumati ularga qarshi har qanday yo'llar va usullar bilan kurashishi kerak deb hisoblay boshlamoqdalar. Bunday qarashni ba'zan xorijdagi uyg'ur tashkilotlarining o'zlari ham tasdiqlamoqda. Masalan, agar Iudhur Information Agency (Uyg'ur Axborot agentligi) ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, Sharqiy Turkistonda "separatizm va noqonuniy diniy faoliyatni yo'q qilish"ga qaratilgan "Zarba" nomli xitoy kampaniyasi ketmoqda. Bu tashkilot keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, bu kampaniya davomida 13 mingdan ortiq kishi hibsga olingan, 6 mingdan ortiq o'q otar qurol, 70 ming patron va 80 tonna portlovchi moddalar qo'lga olingan.

Hozirgi kun Sharqiy Turkiston siyosiy hayoti keskin qarama-qarshiliklarga to'la. Bir tomondan, Xitoy davlati iqtisodiy jihatdan borgan sari rivojlanib, mahalliy aholi turmush sharoiti yaxshilanib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Pekin Sinszyan Uyg'ur Avtonom rayoni etnik balansi tarkibida xitoylik (xan)lar umumiy foizini oshirishga va shu yo'l bilan Islom dini ta'sirini to'xtatishga urinmoqda. Bu esa, faqat, radikal kayfiyatdagi xalq vakillarining ozodlik uchun kurashini kuchaytirmoqda xolos. Bu kurash portreti juda ham murakkabdir.

1992 yil dekabr oyida Istambulda bo'lib o'tgan "Sharqiy Turkiston" nomli Butunjahon uyg'ur forumi uyg'ur xalqining mustaqillik uchun kurashini qo'llab-quvvatladi. Bu voqea rasmiy Pekin tomonidan katta norozilik bilan kutib olindi, jahon hamjamiyati esa bunga jiddiy e'tibor bermadi.

1990 yil 5 aprel Barin voqealarida ozodlik uchun kurashda milliy va diniy uyg'unlik namoyon bo'ldi.

⁵⁰ Ефимов Г. Ўша асар. –Б,400.

Ma'lumki, separatizm, asosan, hal etilmagan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar zahirida vujudga keladi va kuchayadi. Omma esa umumiy ijtimoiy vaziyat keskin darajada yomonlashgan va siyosiy tizim bu muammolarni bartaraf etishga qodir bo'lmay qolgan davrdagina uyg'onadi va junbushga keladi. Shuning uchun ham, Sharqiy Turkiston iqtisodiyotidagi o'sish radikal kayfiyatdagi insonlar safining qisqarishiga olib kelishi ham mumkin.

Hech kimga sir emaski, uyg'urlar yashaydigan hudud, butun Markaziy Osiyo kabi, Turkiya, Eron va AQShning geosiyosiy manfaatlari to'qnashgan hudud doirasiga kiradi. XX asrning 90-yillaridan boshlab, bu davlatlar Rossiya va Xitoyning mazkur mintaqadagi ta'sirini zaiflashtirishga harakat qilmoqdalar. Turkiya o'zining panturkizm ("Sharqning barcha turklari, birlashingiz!") g'oyasi va Eron Islom dini orqali Sharqiy Turkistonda o'z ta'sirlarini o'rnatishga bo'lgan urinishlari muvaffaqiyat qozonmadi. Amerika Qo'shma Shtatlari esa xalqaro tashkilotlar, jumladan, xorijdagi uyg'ur tashkilotlari orqali mintaqani o'z ta'siri ostiga urinishi ham samarasiz ketmoqda. Buni so'nggi paytlardagi Tibet atrofidagi mojarolardan ham bilish mumkin.

Xitoy ham o'z navbatida bu hududni o'z qo'lida saqlab qolish uchun barcha choralarni ishga solmoqda. Xitoyliklarni bu yerga ko'chirib olib kelib joylashtirish shu maqsad uchun qaratilgan siyosat hisoblanadi. Umuman, 2000 yilga kelib Sharqiy Turkiston aholisi tarkibi quyidagicha edi:

Sinszyan aholisi tarkibi (2000y)		
Xalq	Soni	Nisbati (%)
Uyg'urlar	11.045.622	55,21%
Xitoylar	6.116.919	30,58
Qozoqlar	1.545.023	7,74
Dung'onlar	513.837	2,55
Qirg'izlar	372.775	1,86
Mo'ng'ullar, qalmaq	149.857	0,81
Dunsyan	55.841	0,30
Tojiklar	39.493	0,21
Sibo	34.566	0,19
Mangjurlar	19.493	0,11
Tuszlilar	15.787	0,086
O'zbeklar	12.096	0,066

Ruslar	8.935	0,048
Myao	7.006	0,038
Tibetlar	6.153	0,033
Chjuanlar	5.642	0,031
Daurilar	5.541	0,030
Tatarlar	4.501	0,024
Solorlar	3.762	0,020

Umuman olganda, Sharqiy Turkistonga xitoyliklarni ko‘chirish jarayonlarini 5 bosqichga bo‘lib o‘rganish mumkin:

Birinchi bosqich - 1949-1953 yy. O‘lka aholisi o‘sishi bu yerga Uemobilizatsiya qilingan Xitoy Xalq ozodlik armiyasi askarlarining ko‘chib kelishi hisobiga ro‘y berdi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 1951 yilda xitoyliklar o‘lka aholisining 10% ini tashkil qilgan bo‘lsa, 1952 yili bu raqam 11%ga ko‘tarildi.

Ikkinchi bosqich – 1954-1957 yy. 1954 yilda Sinszyan ishlab chiqarish qurilish Korpusi tuziladi. Buning natijasida mintaqaga xitoyliklar ko‘chib kelishi kuchaydi. Xitoy hukumati korpusga o‘lkaning obikor yerlarining 1/3 qismini beradi.

Uchinchi bosqich -1957-1961 yy. Besh yil davomida Sharqiy Turkistonga jami 1 million 224 ming kelgindi xitoyliklar ko‘chirib olib kelindi. 1959 yilning o‘zidayoq ko‘chib keluvchilar soni 511 ming kishini tashkil etgan edi. Bu davrda xitoylik aholi soni o‘sishi tempi 252,85%, dung‘onliklarniki 171,49%ni tashkil qildi. 1962 yilda 200 mingdan ortiq kishi o‘lkani tark etishga majbur bo‘ldi.

To‘rtinchi bosqich - 1963-1966 yy. 1962 yilda Langjou-Urumchi temir yo‘l magistrali qurilishi nihoyasiga yetdi. Endilikda xitoyliklar Sharqiy Turkistona oilalari bilan ko‘chib kela boshladi.

Angliyada nashr qilinadigan “Central Asia Review” jurnali ma’lumotlariga ko‘ra, 1953-1967 yillar davomida Sharqiy Turkistona 1 million 256 ming xitoylik joylashtirilgan bo‘lsa, ularning 55%i 1962 yilgi temir yo‘l qurilishidan so‘ng ko‘chib kelgan edi.

Xitoyning boshqa viloyatlaridan xitoyliklarning bu yerga ommaviy ko'chib kelishi tufayli o'lkadagi xitoyliklar salmog'i 1949 yilgi 35%dan 1966 yilga kelib 45%ga yetdi. Xitoyliklar ko'chishining asosiy oqimi 1949-1976 yillarga to'g'ri keldi. Xitoyliklarning tinimsiz ko'chib kelishi va unumdor yerlarni egallab olishlari o'lka tub aholisi orasida g'azab va nafratni keltirib chiqardi. Bu davrda juda ko'p nizoli to'qnashuvlar sodir bo'ldi.

Beshinchi bosqich. Xitoyda olib borilgan iqtisodiy islohotlar mobaynida ham xitoyliklarning bu yerga migratsiyasi tixtamadi. Bu jarayon hozirgi kunda ham davom etmoqda.

90-yillar boshlaridan boshlab xitoyliklar Sharqiy Turkistonning janubiy va g'arbiy rayonlarini "o'zlashtirish"ga kirishdilar.

Migrasion jarayonlar shundoq ham og'ir bo'lgan ekoologik vaziyatni battar yomonlashtirimoqda. Ichki Xitoydan jinoyatchi unsurlarning o'lkaga ko'chib kelishi mahalliy aholi orasida jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Eng ko'p axloq tuzatish koloniyalari Sharqiy Turkiston janubida (Oqsuv, Qoshg'ar va Xo'tan shaharlarida) joylashgan.

Xitoy hukumati o'lkaga xitoyliklarni ko'chirib olib kelib, bu yerdagi milliy-ozodlik harakatlarini bo'g'ish payida bo'ldi. Mahalliy tub aholi xitoy hukumati olib borayotgan bunday diskriminasion siyosatga qarshi bir necha bor norozilik bildirib, qo'zg'olonlar uyushtirdi.

XXR tomonidan "ochiq eshiklar siyosati" qo'llanila boshlagach, 70-yillar oxirlaridan boshlab, chet elliklar uchun ilgari yopiq bo'lgan ba'zi shaharlar ochila boshlandi. 1978 yilda Urumchi va Shixeszi, biroz keyin Turfan, 1984 yilda esa Qoshg'ar shaharlari "ochiq shaharlar" deb e'lon qilindi. 1986 yilda bunday shaharlar safiga Hami, Chanszi, Korla, Oqsuv va Ortush 1988 yilda esa G'ulja, Bole, Chuguchak va Quytun shaharlari ham qo'shildi.

Hozirgi kunda Sharqiy Turkiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegarada o'ndan ortiq savdo punktlariga ega.

1993 yildan boshlab, Sharqiy Turkistonning tashqi savdo bilan shug'ullanadigan kompaniyalari soni bir necha yuztaga yetdi. Shulardan 209 tasi

xitoy oldi chegaralarida joylashgan. Turli zavod, fabrika va magazinlar ishga tushirilib, o'zaro iqtisodiy hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan.

Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyo davlatlari – Qozog'iston, Tojikiston, O'zbekiston va Qirg'iston 50 ga yaqin iqtisodiy va ilmiy loyihalarni imzoladilar.

1992 yil 6 iyunda beshta shimoli-g'arbda joylashgan viloyatlarni taraqqiy ettirishga bag'ishlangan butunxitoy majlisida Xitoy bosh vaziri Li Pen quyidagilarni ta'kidlagan edi: "...Xitoyning shimoli-g'arbidagi viloyatlar qo'shni davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirishlari lozim, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni amalga oshirishlari kerak. Shunda shimoli-g'arbiy hududlar rivojlanishi yanada tezlashadi...".

1995 yilda poytaxt Urumchi shahrida Qozog'iston milliy aviakompaniyasi "Eyr Kazaxstan"ning vakolatxonasi hamda aviayo'lovchilar uchun viza tayyorlash punkti ochildi. Bundan avval 1989 yilda ikki davlatni birlashtirgan "Urumchi-Olma-Ota" temir yo'li magistrali ishga tushurilgan edi.

XULOSA

Tarix bu insoniyatning, boshlanishidan boshlab to yashayotgan davrini o'z ichiga oladi. Tarixsiz kelajak yo'q deyiladi, Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich aytganlaridek, O'z tarixini, bilmagan inson kelajakni ham qurolmaydi, bu gapni bejiz aytmaganlar. Qadim o'tmishdan bir qancha davlatlar qirg'in balotlar bo'lib shu kungacha davlat bo'lib shakllanib keldi. Ming afsuski qanchadan qancha davlatlar yo'qolib ketdi, o'z ildiz va o'z izlarini qoldirib manaviy mero'slarini avlod ajdodlarga o'lmas iz bo'lib qoldirdilar.

Shu millatlar orasida, biz Uyg'ur xonligini ko'rib chiqishimiz taqsinga loyiqdir, uyg'ur millati tarixda qanday ahamiyatga ega ekanligining va ularning ijtimoiy iqtisodiy hayotini qanday bosib o'tilganligini va XIX asrni oxiri va XX asrni boshlarida, bu millat qanday hayot kechirdi va qaysi davlatlar bilan ijtimoiy va siyosiy, iqtisodiy aloqada bo'ldi va ularning bosib o'tgan hayotini birin ketin ko'rib chiqishimiz darkor.

Davaltchilik an'analari tarixiy mezon ustunlardan sanaladi. Uning mustaxkamligi va barqarorligi mamlakat ichki axvolidan kelib chiqib, tashqi munosabatlarda bilinadi. Eng diqqatga sazovor shu ediki Sharqiy Turkiston o'lkasida hukm surgan Chin imperiyasi o'zining siyosati Uyg'urlar hayotiga bir muncha ta'sir qildi, shu ta'sir doirasida uyg'urlar chiqishga va o'zligini saqlashga intildilar va shu asnoda ozodlik uchun kurashlar olib bordilar mustaqillik negizida o'zlarining xati xarakatlar namoishlarini oshkorona ravishda g'alayonlar qildilar va bir misol qilib aytganda erishdilar ham, lekin bu ozodlik uchun kurashlari natijasida qanchadan qancha insonlarning qirg'ini va qancha oilalarni yostig'ini quritgani diqqatga sazovordir, ming afsuski insonlarni qonlari to'kilib ko'p yoqotishlarni boshdan o'tkazdilar.

XIX-XX asrning I-yarmida Uyg'ur xalqining Sharqiy Turkistonda olib borgan siyosati, tarix uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Manjurlarning bu o'lkaga bostirib kelib o'zlarining qo'sh tirnoq ichidagi ijobiy siyosatlari bilan bu o'lkani boshqarishga urindilar va qo'llarida kelgan barcha ishlarni amalga oshirdilar natijada nima bo'ldi degan savol tug'iladi? Agarda xalqning yaxshi boshqargan

imperator yoyinki xukmdor, agarda xalqni boshqarish faoliyatida suskashlikga yo'l qo'ymasa unga nisbatan tazyiq va qoz'g'alonlar bo'lib o'tarmidi, Chin imperiyasi davrida o'lkada o'nga yaqin g'alayonlar bo'lib o'tdi, ana shu qo'zg'lonlar ichida dehqonlar qo'zg'oloni diqqatga sazovordir, bu qo'zg'londa kichik bir maktab bolasining ko'zi qonga to'lganligi va ozodlik uchun jonini berishi ham uyg'urlarga xos xislatlardan biridir. XIX-XX asrlarda Sharqiy Turkiston sarxadlarida ro'y bergan o'zaro qonli janjallar va to'qnashuvlar, ozodlik uchun olib borilgan kurashlar natijasida Sharqiy Turkiston o'lkasida Manjurlarning parokandalikga uchrashi va uyg'ur xalqining hayoti Xitoy xalq Respublikasi tashkil topishi bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib ketdi. Chin imperiyasi davrida ularning siyosati va Sharqiy Turkistonda hukmronlik faoliyatida shuni xulosa qilib aytishimiz darkorki uyg'ur milatining metindek sabri, irodasi va shijoati ularning bir biriga bo'lgan mexri, kishini lol qoldiradi. Mudomiyki uyg'urlarning tarixi deganda yuqorda takdlaganimizdek qonli janglar kurashlar ko'z oldimizga kelar ekan bularga qoyil qolmay ilojimiz qancha.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimov asarlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2009.
2. Karimov.I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston. 2011.
3. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Prezident Islom Karimovning 2009 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.
4. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi to'g'risida to'g'risida Axborot. 2010 yil 28 yanvar.
5. O'zbekiston Konstitutsiyasi - biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi», 2009 yil 6 dekabr.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009.
7. Mamlakatni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
9. Karimov I.A. Ozod yurtning ulug' tantanasi. "Xalq so'zi" gaz., 2008 yil 1 sentyabr.
10. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998.
11. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, siyosat, mafkura. – T.: Sharq, 1993.

Asosiy adabiyotlar:

1. Ходжаев А. Захват цинским Китаем Джунгарии и Восточного Туркестана. Борьба против завоевателей // Китай и соседи в новое и новейшее время. – М.: Наука, 1982. – С. 153-203.
2. Ходжаев А. Цинская империя и Восточный Туркестан в XVIII в. – Ташкент: Фан. 1991. – 130 с.
3. Ходжаев А. Из истории международных отношений Центральной Азии в XVIII веке. – Ташкент: Фан, 2003. – 286 с.
4. Ходжаев А. Китайский фактор в Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 2004. – 136 с.
5. Тихваниский С. «История Китая и современность» М. 1976.
6. Хўжаев А. Буюк Ипак Йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2007. – 456 б.
7. Чвырь Л.А. Уйгуры Восточного Туркестана и соседние народы в конце XIX – XX в. Очерки историко-культурных связей. – М.: Наука, 1990. – 301 с.
8. Мартинов.А.С «Статус Тибета в XVII – XVIII» в.в М. 1978.
9. Новая история Китая 1973.
10. Абаева Т.Г. «Очерки история Бадахшана» Ташкент, 1964.
11. Вяткин Р.В. «Историческая наука в КНР на современном этапе Вопросы история» 1963.19.
12. Anvarov A. История изучения Восточного Туркестана английскими и индийскими путешественниками. Спб. 1992. – С 73.
13. Дьяконова Н.В. Культурное наследие национальных меньшинств Синьцзяна, в кн.: Труды Государственного Эрмитажа. Т – 2. М – Л. 1958. 234 б.
14. M. Lafasov, E. Xoliqov Darslik Abdulla Qodiriy xalq me'rosi nashriyoti. T. 2002.
15. Фань Вэнь Лань. Новая история Китая. – М., 1955.
16. Ефимов Г. Очерки по новой и новейшей истории Китая. – М., 1961. – С. 88.

17. Синьцзян–уйгурский автономный район Китая. –Мас.мух. Попкова М.Д. –Алма–Ата, 1980. –С.111.
18. Исследования по уйгуроведению: филология, история, экономика. Мас.мух.Толипов К. –Алма–Ата, 1999.
19. Боғра М. Шарқий Туркистон тарихи. Анқара, 1987. –Б.490.
20. Бармин В.А. СССР и Синьцзян 1918-1941 гг. (Региональный фактор во внешней политике Советского Союза). Барнаул. 1998. –С.88.
21. Йин Жйе “70 йил бурун Шинжонда тарқалган вабо касали”// Шинжон тазкираси. Урумчи, 1996. –Б.38.
22. Басханов М.К. Политика Англии в отношении государства Якуббека. Алма-Ата, 1990. –Б.120.
23. Skine C.P. Chinese Central Asia. Boston: Houghton, Mufflin. 1926. –P.108.
24. Кузнецов В.С. Экономическая политика китайского провительство в Синьцзяне. –М., 1973. –С.55.
25. Noris M.R. Gareway to Asia: Sinkiang. Frontier of the Chinese Far West. New York: The John Day Company. 1944. –p. 146.
26. Lattimore O. High Tartary. Boston: Little Brown and Company. 1930.
27. Lattimore O. Pivot of Asia. Sinkiang and Inner Asian Frontiers of China and Russia. Boston: Little, Brown and Company. 1950. –p.173.
28. Fleming P. News from Tartary. A journey from Peking to Kashgar. New York/ 1936. –p. 256.
29. E.Tikeman. Journey to Turkestan. London, 1945. –p.111
30. Васильев Л.С. История Востока. Т-2. –М., 2001. –С.320.
31. Сыроежкин К. Проблемы национальных меньшинств Китая. / док.дисс. Алма-Ата. 1995. –С.95.

ILOVA

1949-1975 yillar davomida Sharqiy Turkistondagi asosiy millat vakillari soni o'sishi ko'rsatkichlari (foizda)

yillar	uyg'urlar	xitoylar	qozoqlar	Dung'onlar	qirg'izlar	mo'g'ullar
1949-1952	106,38	111,64	111,37	104,44	105,15	108,30
1952-1957	110,46	251,99	107,32	126,52	107,20	116,03
1957-1962	103,56	252,85	91,84	178,49	96,54	113
1962-1965	102,76	132,79	107,51	122,48	105,97	117
1965-1970	113,56	139,98	117,61	133,23	112,82	113,46
1970-1975	112,69	123,80	121,92	124,47	117,60	113
1975-1980	109,460	111,09	116,09	118,55	115,60	109
1980-1985	109,19	100,73	112,59	106	113,41	115
1985-1990	115,17	107,43	115,40	114,89	116,92	103,07
1990-1997	102,82	104,48	102,67	103	103,10	108,92

Xitoyliklarning o'lkadagi okruglar bo'yicha salmog'i (foizlarda)
(1991-1997 yillar bo'yicha)

Rayon	1991	1993	1995	1997
Sinszyan-uyg'ur avton.rayon	38	37	38	38
Ili-Qozoq avtonom okrugi	44	44	44	45
Tarbag'atoy okrugi	57	57	58	58
Oltoy okrugi	42	42	42	43
Ili okrugi	32	32	33	33